

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

“MENEJMENT VA MARKETING” KAFEDRASI

SOBIROV INOMJON AXMED O'G'LI

**«XUDUDLARDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH
VA SAMARALI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI»**

«Moliyaviy menejment» fakulteti
dekani iqtisod fanlari nomzodi
Astanakulov Olim Tashtemirovich
« ____ » _____ 2016

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»
«Menejment va marketing» kafedrası
mudiri iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Asatullaev Xurshid Sunatullaevich
« ____ » _____ 2016

Bitiruvchi :

5230200 -“Menejment”- ta’lim yo’nalishi
4 -kurs talabasi
Normatov Hojimurod Eshmat o’g’li

Ilmiy rahbar:

iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Asatullaev Xurshid Sunatullaevich

TOSHKENT - 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. HUDUDLARDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	7
1.1. Xududlarda investitsion faollikni oshirish va boshqarishning nazariy asoslari.....	7
1.2. Xududlarga investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitini yaratishning ahamiyati.....	15
1.3. Xududlarga investitsiyalarni boshqarishning huquqiy va institutsional asoslari.....	25
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	32
II BOB. XORAZM VILOYATI URGANCH SHAXRINING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH VA INVESTITSION FAOLLIGI TAHLILI.....	33
2.1. Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va investitsiya siyosatini boshqarishning hozirgi darajasi.....	33
2.2. Urganch shaxridagi korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari va investitsiyalar samaradorligi tahlili.....	39
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	45
III BOB. HUDUDLARDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA SAMARALI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	46
3.1. Xududlar investitsion faolligini oshirish va boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	46
3.2. Xududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy usullarini joriy qilish.....	56
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	62
Xulosa.....	64
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	67

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va dunyo miqyosida raqobatbardoshligining o'sishiga mamlakat, mintaqalar, iqtisodiyot tarmoqlari va alohida korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirishga yo'naltirilgan davlatning samarali investitsiya siyosatisiz erishib bo'lmaydi. Mamlakatda tadbirkorlikning rivojlanayotganligi, barqaror iqtisodiy o'sishga erishilayotganligi, xorijiy investorlarning milliy iqtisodiyotimizga bo'lgan qiziqishlarining ortib borishi mamlakatdagi, avvalambor, iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiya jarayonlarini faollashtirmoqda.

Jahon amaliyotidan ma'lumki, har qanday davlat o'z iqtisodiyotiga chet el sarmoyalarini, investitsiyalarni jalb qilmasdan turib taraqqiy eta olmaydi. Ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish, asosiy fondlarni yangilash, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, zamonaviy texnika-texnologiyalar asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash investitsiyalar orqali ta'minlanadi.

Shu boisdan mustaqillik yillarida mamlakatimizda investitsiya muhiti barqarorligini va jozibadorligini oshirish borasida qator chora-tadbirlar ko'rildi, tegishli qonunchilik hujjatlari qabul qilindi, xorijiy investorlarga bir qator moliyaviy imtiyozlar yaratildi. Ana shu sa'y harakatlar natijasida "2015 yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014 yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalaridir"¹, deb ta'kidlab investitsiyalarning nafaqat iqtisodiyotni, balki xudularni rivojlantirishdagi g'oyat muhim ahamiyatini hamda uni jalb qilishning dolzarbligini e'tirof etadi.

¹ Karimov I.A. "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir". 17.01.2015y. <http://xs.uz>– Xalq so'zi gazetasi sayti.

Globalizatsiya jarayoniga qo'shilish bu dunyoning etakchi davlatlari bilan hamkorlikda bo'lish, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohadagi davlat siyosatining o'zaro manfaatli asosda bu davlatlar siyosatiga mos kelishidir. Shu nuqtai-nazardan O'zbekiston jahon hamjamiyati oldida bugungi kunda o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasida geografik joylanishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan investitsiya siyosati va boshqalar bilan muhim rol o'ynaydi. Bu esa, o'z navbatida, xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun qulay investitsiya muhiti barpo etish zaruriyatini ko'rsatadi.

Shu sababdan ham mulkchilik va xo'jalik yuritish shakl va usullari o'zgarayotgan va rivojlanayotgan hozirgi jarayonda mamlakat xudulariga investitsiyalarni jalb qilish, ular faolligini oshirish va samarali joylashtirish jarayonlarini boshqarish hamda takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish dolzarb muammolardan sanaladi. O'zbekiston mintaq va xudulariga xorijiy investorlarni jalb qilish va ular kiritayotgan sarmoyalar miqdori hozirgi davr talablariga to'liq javob bermaydi. Shuning uchun ham iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizga va uning xududlariga investiyalarni faol jalb qilish maqsadida ular faolligini oshirish hamda boshqarishni takomillashtirish masalalarini hal etish muhim ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim. Shu boisdan ham nafaqat ichki, balki xorijiy investitsiyalarni xududlardagi faolligini oshirish va boshqarishni takomillashtirish, ular hajmini ko'paytirish hamda ulardan mintaq va xududlarda samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish yo'nalishlarida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, 2016-yil uchun belgilangan, umumiy qiymati 5 milliard dollardan ziyod bo'lgan 164 ta investitsiya loyihasini belgilangan muddatlarda so'zsiz ishga tushirishni ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlarni kechiktirmasdan amalgam oshirish lozim². Yuqoridagi biz tomonimizdan keltirilgan fikrlar tanlangan bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

² I.Karimov. Bosh maqsadimiz-iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, sususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo'l ochishdir. T.:O'zbekiston NMIU, 2016-y. 33-bet.

Bitiruv malakaviy ishining obykti. O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni jalb qilish va samarali joylashtirish va uni boshqarush faoliyati shuningdek, Xorazm viloyati va Urganch shaxridagi investitsion faollikni oshirishdagi munosabatlardir.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. O'zbekiston Respublikasi va uning xududlariga investitsiyalarni samarali joylashtirish va ularni boshqarish faoliyat hamda Urganch shaxriga investitsion faollikni boshqarish tizimidagi iqtisodiy munosabatlar mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy izlanishlar natijalari tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Xududlarning investitsion faolligini baholash va samarali boshqarishning nazariy asoslarini rivojlantirish hamda Urganch shaxrining investitsion faolligini oshirish va boshqarishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagilar tadqiqot vazifalari, deb belgilandi va hal etildi:

- xududlarda investitsion faollikni oshirish va boshqarishning nazariy asoslarini o'rganish;
- xududlarga investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsion muxitni yaratish va uni boshqarish;
- xududlarga investitsiyalarni boshqarishning huquqiy va institutsional asoslarini ko'rsatib berish;
- xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi darajasi taxlili amalga oshirish;
- Urganch shaxrining investitsion faolligining joriy holati tahlili muhitini yaratishning ahamiyatini ko'rsatib berish;
- Urganch shaxridagi korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari va investitsiyalar samaradorligini tahlil qilish;
- xududlar investitsion faolligini oshirish va boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasini aniqlash;

–xududlarga investitsion muhit jozibadorligini oshirish va boshqarish yo'llarini aniqlash;

– xududlarda investitsion faollikni samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ishda keltirib o'tilgan xulosa va takliflardan respublikamiz xududlarida investitsion faollikni oshirish va uni boshqarish mexanizmini, shuningdek, korxonalarning investitsion-innovatsion boshqarish tizimini takomillashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, investitsiya faoliyati rivoji uchun mavjud xududiy omillarni taxlil qilish lozim bo'ladi. Bu taxlil mablag'lar yo'nalishining eng maqbul yo'nalishini tanlash va kelajakda har bir xududga mos keladigan investitsiya siyosatini belgilash hamda samarali boshqarish strategiyasini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Xudud iqtisodiy o'sishini ta'minlashda nafaqat investitsiyani ko'paytirish balki ular yo'nalishlari va tuzilmalarini to'g'ri tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xududiy investitsiyalash dasturi uchun shunday ishlab chiqarish turlari va korxonalarni tanlash lozimki, ular tezda o'zini qoplab, yuqori darajada iqtisodiy va texnologik samara bera olishlari kerak.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi kirish, mazmunan o'zaro bog'langan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat, umumiy hajmi 72 bet, 10 ta jadval, 5 rasmdan tashkil topgan.

I BOB. HUDUDLARDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Xududlarda investitsion faollikni oshirish va boshqarishning nazariy asoslari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning asosiy iqtisodiy tushunchalari sifatida investitsiyalar tushunchasining bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o'zi uning mohiyati va ahamiyati, zarurligini ko'rsatib, uni ochib berishga bo'lgan zaruriyatni keltirib chiqaradi. Bu tushuncha o'zi bilan birga investitsiya loyihalari tushunchasi, investitsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish, ularning texnik iqtisodiy asoslanishi va ekspertizasi, loyihaviy tahlil, loyihalarning samaradorligini baxolash va monitoringi kabi bir qator yangi ko'plab tushuncha va iqtisodiy bilimlarni kashf etishi ularning bugungi iqtisodiy hayotimizda naqadar muhimligini anglab olishimizga sabab bo'lmoqda.

Jahon iqtisodiyotining, shu jumladan O'zbekiston iqtisodiyotining ham kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda har bir bilim sohibi anglab etganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan chet el investitsiyalarini kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy isloxoatlarning samarali ijrosini ta'minlashning muxim asosiga aylanganligi bilan bog'likligini tushunib olish kiyin emas³.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qulay investitsiya iqlimi shakllanmasdan va xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiy xamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalasha olmaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda va amaliyotda "investitsiya" nisbatan aniq va keng qo'llanilayotgan atama hisoblansada, ikkinchi tomondan, uning ko'p qirraligi va ziddiyatliligi nafaqat mamlakatimiz, balki xorijiy iqtisodiy adabiyotlariga ham xos.

“Investitsiya” atamasining mohiyatini aniqlashni iqtisodiy adabiyotlarda keng

³ Jo'raev A.S, Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B. «Investitsiya loyihalari tahlili» Toshkent «Sharq»2007-52b

qo'llaniladigan ta'riflarni tahlil etishdan boshlash maqsadga muvofiq.

"Investitsiya" tushunchasi bir qator ma'nolarga ega bo'lib, bu qisqacha qo'yilma degan ma'noni bildiradi. Yoki buni foyda olish maqsadida aktsiya, obligatsiya sotib olish, tovar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan real aktivlarni sotib olish va ishlab chiqarish hamda intellektual va boshqa moddiy boyliklar uchun sarflanishi tushuniladi, ya'ni investitsiyalar har qanday vosita bo'lib, pulning qiymatini saqlaydi, uning qiymatini ko'paytiradi, va ijobiy daromad olishni ta'minlaydi.

Investitsiya³ (lot. investio – o'rash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish)dir. An'anaviy tarzda investitsiya deganda kelgusida ko'zda tutilgan daromadlarni olish maqsadida hozirda aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish tushuniladi. Investitsiya mohiyatini tavsiflashdagi bunday yondashuvga milliy, shu bilan birga, xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda birlamchi e'tibor beriladi.

Demak, investitsiya so'zi kengroq ma'noni anglatib, bunga qo'shimcha ravishda o'zlashtirmoq degan ma'noni ham berar ekan"⁴.

Investitsiya huquqi sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan rus olimi A.G.Bogatirev ham yuqoridagi nuqtai nazarga yaqin pozitsiyani egallaydi.⁵ Aynan xarajatlarning ishlab chiqarishga xosligi va uzoq muddatliligi ko'p hollarda mualliflar tomonidan investitsiyalar va kapital qo'yilmalar o'rtasida tenglik ishorasini qo'yilishiga sabab bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Yevropacha uslub "investitsiya" atamasini qimmatli qog'ozlarga kiritilgan uzoq muddatli qo'yilmalarga nisbatan ham qo'llanilishiga yo'l qo'yadi. Ammo "faqat korporatsiyani boshqarish imkoniyatini o'zida aks ettirgan holatdagina bunday kapital qo'yish investitsiya bo'lishi mumkin".⁶

Amerikancha uslub ham "investitsiya" va "kapital qo'yilmalar" atamalari

³ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: «O'ME» davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 4-tom. –145-b

⁴ Karimov N.G', Xojimatov R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" Darslik. - TDIU, 2011-B.

⁵ Богатирев А.Г. Инвестиционное право. М.: Российское право, 2008.-272 с.

⁶ Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. - М.ИНФРА-М, 2007. - с.28.

o'rtasida tenglik ishorasini qo'yadi va uning iqtisodiy mazmunida ko'chmas mulkka qilingan qo'yilmalarga ustuvorlik beradi.

Investitsiya atamasi to'g'risida so'z yuritganda MDH mamlakatlari iqtisodiy adabiyotlarida keng qo'llaniladigan bir qator ta'riflarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Masalan, rus iqtisodchi-olimi Kovalev V.V. - fikriga ko'ra, "investitsiyalar — xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi korxonalarga uzoq muddatli kapital qo'yishdir (mamlakat ichida yoki xorijda)"⁷. Ko'rinib turibdiki, ushbu ta'rifda investitsiyalarning maqsadi va sohalari o'z aksini topmagan. Shu bilan birga ushbu ta'rifda investitsiyalar uzoq muddatli kapital qo'yilmalarga tenglashtirilmoqda.

Investitsiyalar — asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aktsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi.

Lukinov V.A. yuqoridagi ta'rifga nisbatan bir muncha to'laroq va aniqroq ta'rifni keltiradi: "investitsiyalar — foyda olish maqsadida mamlakat ichkarisida yoki xorijda xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga davlat va xususiy kapitalining uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalaridir"⁸.

Mazkur ta'rifda investitsiyalarning maqsadi ko'rsatilgan bo'lsada, uning ijtimoiy samarani ta'minlashdagi roli ko'rsatilmagan. Shuningdek, investitsiyalar faqat moliyaviy qo'yilmalar sifatida tavsiflangan, xolos. Vaholanki, mashinalar, texnologiyalar, litsenziyalar ham investitsiyalar bo'lishi mumkin.

Rossiyalik iqtisodchilar A.Yu.Andrianov, S.V. Valdaytsev ham investitsiyalarga shunga yaqin ta'rif keltiradilar: "Investitsiyalar – davlat kapitali va xususiy kapitalning foyda olish maqsadida mamlakat . ichkarisida yoki xorijiy mamlakat iqtisodiyotiga uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalaridir"⁹. Ko'rinib turibdiki, ushbu ta'rifda investitsiyalarning tarkibi keltirilmagan va bu yerda ham

⁷ Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов.-- М.: Финансы и статистика, 2008. – 144с.

⁸ Лукинов В.А. Проблемы стабилизации и развития инвестиционно-строительной сферы.-- М.: 1998. 228с.

⁹ Инвестиции: учеб. /А.Ю. Андрианов, СВ. Валдайцев, П.В. Воробьев и др.— 2-е изд., перераб. и доп. М.:ТК Велби, Изд-во Проспект, 2008. — с58.

investitsiyalarni moliyaviy qo'yilmalar sifatida ta'riflash ustuvor o'ringa ega.

"Investitsiyalar foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy yoxud iqtisodiy samaraga erishish maqsadida turli xil ishlab chiqarish, tijorat, ijtimoiy, ilmiy, madaniy va boshqa soha dasturlari va loyihalarini amalga oshirishga kiritiladigan pul, mulk va intellektual boyliklarmajmuasidan iborat"¹⁰, - deb ta'rif beradi investitsiyalar tahlili sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan rossiyalik iqtisodchi O.Sinitsin.

Mazkur ta'rif garchi keng qamrovli bo'lsa-da, investitsiyalarning mohiyatini to'liq va aniq ochib bera olmaydi. Bunda investitsiyalar turli xil dasturlarni va loyihalarni amalga oshirish uchun sarflanadigan pul, mulk va intellektual boyliklar majmuasidan iboratligi ta'kidlanadi.

Qimmatli qog'ozlarga qilinadigan uzoq muddatli qo'yilmalar, texnologiyalar sotib olish uchun sarflanadigan mablag'lar va boshqa muhim investitsiya turlari e'tibordan chetda qolgan.

Quyidagi ta'rifda investitsiyalar va kapital qo'yilmalar o'rtasiga tenglik ishorasi qo'yilgan: "Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) — xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlashga yo'naltirilgan moddiy, mehnat va pul resurslari xarajatlari yig'indisidan iborat"¹¹.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida" gi qonunida keltirilgan ta'rif investitsiyalarning iqtisodiy-huquqiy tabiatini to'liq ochib beradi: "investitsiyalar - iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va (nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar; investitsiya faoliyati - investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui"¹².

Ushbu ta'rif investitsiyalarning ham real ham moliyaviy turlari mazmunini qamrab oladi. Investitsiyalar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin (1-rasm).


Mablag'larni kiritish ob'ektiga ko'ra investitsiyalarni ikki turga ajratish mumkin: moliyaviy investitsiyalar va real investitsiyalar.

¹⁰ Синицин О. Инвестиционный анализ. Теория выбора // Инвестиции в России. № 1-2, 2007

¹¹ Шапиро В.Д. и др. Управление проектами. — СПб.: "Два Три", 2006. - 17 с..

¹² 11 "O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi. 1998 y. 24 dekabr, 2-modda

Moliyaviy investitsiyalar - mablag'larni moliyaviy aktivlarga kiritishdir. Moliyaviy investitsiyalar aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar shaklida qatnashishi mumkin.



1-rasm. Investitsiyalarning tasniflanishi¹³

Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar shaklidagi investitsiyalar deganda, davlat qimmatli qog'ozlariga (obligatsiyalar va boshqa qarz majburiyatlari), boshqa korxonalarning qimmatli qog'ozlari va Nizom kapitaliga kiritilgan mablag'lar, shuningdek, mamlakat ichkarisida va xorijda korxonalarga taqdim etilgan qarz mablag'lari tushuniladi.

Real investitsiyalar deganda barcha turdagi (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish) nomoliyaviy aktivlarni sotib olish maqsadida kiritilgan mablag'lar tushuniladi.

Investitsiyalarning real va moliyaviy turlarga ajratilishi ularni tasniflashtirishdagi asosiy belgilardan hisoblanadi. Investitsiyalash jarayoniga

¹³ "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalaashtirish" fanidan ma'ruza matni. 2009 yil 36-bet

ishtirok etish xarakteriga ko'ra investitsiyalar bevosita va bilvosita investitsiyalarga bo'linadi.

Bevosita investitsiyalarda investor investitsiyalash ob'ektini tanlash va mablag'lar kiritishga bevosita ishtirok etadi. Bevosita investitsiyalarni odatda investitsiya ob'ekti to'g'risida aniq ma'lumotga ega, investitsiyalash mexanizmi bilan yaqindan tanish, shuningdek bu sohada katta tajribaga ega bo'lgan maxsus tayyorgarlikka ega investorlar amalga oshiradilar.

Bilvosita investitsiyalar investitsion yoki boshqa moliyaviy vositachilar orqali amalga oshiriladi. Investitsiyalash muddatiga ko'ra investitsiyalar qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalarga bo'linadi.

Qisqa muddatli investitsiyalar bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga kapital kiritishdir. Masalan, qisqa muddatli depozit qo'yilmalari, qisqa muddatli jamg'arma sertifikatlarini sotib olish va h.k.

Uzoq muddatli investitsiyalar ishlab chiqarish uchun mo'ljallanmagan uzoq muddatli foydalanish ko'zda tutilgan aktivlarni barpo etish, ularni kengaytirish va sotib olishga sarflangan kapital mablag'lardir.

Mulk shakliga ko'ra investitsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi: xususiy, davlat, xorijiy va qo'shma investitsiyalar.

Xususiy investitsiyalar fuqarolar hamda mulkchilikning nodavlat xo'jalik yuritish sub'ektlari tomonidan mablag'lar kiritishdir.

Davlat investitsiyalari - markaziy, mintaqaviy hamda mahalliy hukumat va boshqaruv organlari tomonidan byudjet, byudjetdan tashqari fondlar hamda qarz mablag'lari hisobiga, shuningdek, davlat korxonalari tomonidan ularning o'z va qarz mablag'lari hisobiga amalga oshiradigan qo'yilmalaridir.

Bevosita xorijiy investitsiyalar xalqaro investitsiya faoliyatining muhim toifasi bo'lib, bir mamlakat xo'jalik yuritish birligining boshqa mamlakatdagi korxonaga barqaror ta'sir o'tkazishga intilishini o'zida aks ettiradi. Barqaror ta'sir o'tkazish deganda bevosita investor va ko'rsatilgan korxona o'rtasida uzoq muddatli munosabatlar o'rnatish, shuningdek, ushbu korxonani boshqarishda investorning sezilarli roli tushuniladi.

Bevosita xorijiy investitsiyalar Nizom kapitaliga badal, kreditlar va boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Bevosita investitsiyalash korxonasi korporativ va nokorporativ birlik sifatida aniqlanadi. Unda investorga kamida 10 foiz oddiy aktsiya yoki aktsionerlar ovozi (korporativ korxonalar uchun) yoki shunday ishtirokning ekvivalenti (nokorporativ korxonalar uchun) tegishli bo'ladi.

Shunday qilib, bevosita investitsiyalash korxonasiga investor- rezident 50 foizdan ko'proq aktsiya yoki ovozga ega bo'lgan sho''ba-korxona yoki kompaniya, bevosita xorijiy investor ulushi 50 foiz va undan kam bo'lgan asotsiatsialashgan korxona, to'liq yoki qisman investor tasarrufida bo'lgan va bevosita investorga tegishli bo'lgan nokorportativ korxona kiradi.

Bevosita va portfel investitsiyalarni bir-biridan ajratish uchun amaliyotda quyidagi mezondan foydalaniladi: agar investor 10 va undan ortiq foiz oddiy aktsiyalarga ega bo'lsa, bunday investitsiyalar bevosita investitsiyalar hisoblanadi.

Boshqa xorijiy investitsiyalarga bevosita va portfel investitsiyalar jumlasiga kirmaydigan investitsiya turlari kiradi. Masalan, savdo kreditlari, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olinadigan kreditlar, bank qo'yilmalari va boshqalar.

Mintaqaviy belgisiga ko'ra investitsiyalar mamlakat ichkarisidagi va xorijdagi investitsiyalarga bo'linadi.

Mamlakat ichkarisidagi (ichki) investitsiyalar deganda mamlakat hududida joylashgan ob'ektlarga investitsiya mablag'larining kiritilishi tushunilsa, xorijdagi investitsiyalar (tashqi) mamlakat hududidan tashqarisida joylashgan ob'ektlarga investitsiyalarni joylashtirish tushuniladi¹⁴.

Yuqorida keltirilgan tasniflashtirish investitsiyalarning eng muhim belgilarini o'zida aks ettirib, zaruriyat tug'ilganda yanada aniqlashtirilishi va ilmiy, tadqiqot, tadbirkorlik maqsadlaridan kelib chiqqan holda yanada kengaytirilishi mumkin.

Investitsiyalar darajasi yalpi ichki mahsulot hajmiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, milliy iqtisodiyotdagi ko'plab mutanosibliklar uning o'sish sur'atlariga

¹⁴ Imomov N.N. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.(O'quv qo'llanma) —T-TDIU, 2011.,44-6.

bog'liq. Investitsiyalar mamlakat miqyosida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlashni yaxshilaydi.

Investitsiya jarayoni va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishda investitsiya multiplikatori muhim ahamiyatga ega. Uni umumiy daromadlarning o'sishi va qo'shimcha kapital qo'yilmalar o'rtasidagi nisbat sifatida ifodalash mumkin.

Investitsiya multiplikatori investitsiyalarning daromadlarning o'sishiga ta'sirini ifodalaydi. Ushbu uslub dastlab R.F. Kan tomonidan mablag'lardan foydalanish multiplikatori¹⁵ sifatida taklif qilingan bo'lib, bu g'oya ushbu olim tomonidan amalga oshirilgan kuzatishga asoslangan. Ushbu kuzatish natijalariga ko'ra, mablag'lardan birlamchi qo'shimcha foydalanishning muayyan hajmi taqsimlangan daromadlar va ular bilan bog'liq xarajatlarning asta-sekinlik bilan o'sishi natijasida ulardan foydalanishning ikkilamchi shakllarini keltirib chiqaradi. Mazkur g'oya keyinchalik Keyns tomonidan bir tizimga keltirilib,

Jadallashuv tamoyili multiplikator tushunchasi bilan birgalikda iqtisodiy tsikllarni atroflicha tahlil qilishga, kapital qo'yilmalarning iqtisodiyotning notekis harakatidagi rolini ochib berishga yordam beradi. Bunda multiplikator investitsiya jarayonlarining faoliyat sxemasini yoritib bersa, jadallashuv tamoyili uning asosiy shart-sharoitlarini aniqlab beradi.

Ushbu nazariy qarashlarning O'zbekistonning investitsiya sohasidagi hozirgi holatini tavsiflashdagi dolzarb jihatlarini alohida ta'kidlash lozim. haqiqatdan ham, iqtisodiy islohotlarning dastlabki davrida O'zbekistondagi investitsiya taqchilligining muhim sabablaridan biri bir tomondan, davlat investitsiyalari hajmining qisqarishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, xususiylar investitsiyalar oqimi uchun zaruriylar shart- sharoitlarni ta'minlashga salbiylar ta'sir ko'rsatgan pirovard mahsulotga bo'lgan ichki talabning keskin qisqarishi bilan bog'liq.

Shunday qilib, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro

¹⁵ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег: Избранное., М.: Эксмо, 2007 г. с.173.

bog'liqliklar tizimida investitsiya jarayonlari asosiy o'rinni egallaydi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirishni tartibga solish sohasidagi asosiy faoliyat yo'nalishlarini belgilab beradi.

1.2. Xududlarga investitsiyalarni jalb qilish va boshqarishda qulay investitsion muhitni yaratishning ahamiyati

Mamlakatning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish darajasi va shuningdek, olib borilayotgan investitsiya faoliyatining o'sish sur'atlari investitsiya muhitiga bog'liq bo'ladi. Investitsiya muhiti investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'larning daromadlilikini ta'minlab beradi.

Ma'lumki, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud. Xorijlik investorlar qonunchilikka ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarning ustav jamg'armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo'shib qatnashish. Bunga misol qilib xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona (XIJK)larni (ustav kapitalining kamida 30 foizi xorijlik investorga tegishli bo'lishi kerak) keltirish mumkin, ya'ni qo'shma korxonalar tashkil etish xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning eng ommabop shakli hisoblanadi.

2. Xorijlik investorlarga to'liq qarashli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarini, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarni barpo etish va rivojlantirish, ya'ni sof xorijiy investitsiyali korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Bunda jami (100 %) ustav kapitali xorijlik investorga tegishli bo'ladi.

3. Mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini sotib olish asosida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

4. Intellektual mulkka, shu jumladan, mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xauga, shuningdek, ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish orqali xorijiy

investitsiyalarni jalb qilish.

5. Kontsessiyalar, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan kontsessiyalar olish asosida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

6. Savdo va xizmat ko'rsatish sohalari ob'ektlariga, turar-joy binolariga ular joylashgan er uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek, erga egalik qilish va undan foydalanish (shu jumladan, ijara asosida foydalanish) hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish orqali xorij sarmoyasini jalb qilish.

7. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

8. Xalqaro lizing amaliyotini rivojlantirish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya faolligining o'sish sur'atlari investitsiya muhitiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi muhimdir, u, qachonki, qaysi mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar mavjud (ijobiy) bo'lsagina o'sha davlat iqtisodiyotiga qo'yilishi mumkin. Investitsiya muhitining jozibadorligi xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishning muhim omili hisoblanadi. O'z navbatida, investitsiya muhiti o'zi nima? Uning jozibadorligi nimalarga bog'liq? Investitsiya muhitiga qanday ta'rif berish mumkin? Qolaversa, investitsiya muhitiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? kabi savollarning tug'ilishi, tabiiydir.

Iqtisodchi-olimlardan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiev, N.Muminovlar investitsiya muhiti to'g'risida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: «Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investitsiya muhiti kompleks, ko'pqirrali tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya sur'atlari, valyuta

kursining barqarorligi, tashqi qarzдорlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega»¹⁶. Shuningdek, mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui investitsiya muhitini anglatadi.

«Investitsiya muhiti» va «investitsiya iqlimi» sinonim tushunchalar sifatida ishlatiladi. Bu xususta iqtisodchi-olimlardan D.G'ozibekov va T.Qoralievlar tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: «Investitsiya iqlimi juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi»¹⁷.

Investitsiya muhitining holatini investitsiya faoliyatini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy, ekologik va boshqa shart-sharoitlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investitsiya muhiti deganda, mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma'lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tashkiliy-huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. U muayyan hududga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan shart-sharoitlarning mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini anglatadi.

Investitsiyaviy jozibadorlik – mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror-bir korxona investitsiyalarining daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va investitsiya riski darajasi nuqtai nazaridan baholanishi. Investitsiyaviy jozibadorlik investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligi, investitsiya riski darajasini aniqlash

¹⁶ Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010. – B. 153.

¹⁷ G'ozibekov D.G., Qoraliev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. – T.: «TMI», 1993. – B. 46.

mumkin.

Investitsiya muhitini ta'riflashda va uning holatiga baho berishda quyidagilarni inobatga olish zarurdir:

– yalpi ichki mahsulot, milliy daromad va sanoat ishlab chiqarishining o'sishi yoki kamayishi; milliy daromadning taqsimlanishi; jamg'arma va iste'mol munosabatlarining o'zgarishi; xususiylashtirish jarayonlarining borishi; ma'muriy yo'l bilan investitsiya faoliyatini tartibga solishning holati; alohida investitsiya bozorlarining, shu jumladan, fond va pul bozorlarining taraqqiyoti;

– investitsiya iqlimiga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga olish. Bu omillar qatoriga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq: hududning iqtisodiy salohiyati, ya'ni mintaqaning pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi; ishlab chiqarish va investitsiyalarni yo'lga qo'yish uchun bo'sh erlarning mavjudligi; mehnat va energiya resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi; ilmiy-texnikaviy salohiyatning rivojlanganlik darajasi; olib borilayotgan umumiy xo'jalik yuritish shart-sharoitlari, ya'ni ekologik holat, moddiy ishlab chiqarish sohalarining rivojlanganligi; tugallanmagan qurilishlarning hajmi; asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirish darajasi; uy-joy qurilishi sohasining taraqqiy etganligi;

– mintaqada bozor muhitining tarkib topganligi, ya'ni to'laqonli bozor infratuzilmasining rivojlanganligi, xususiylashtirishning investitsiya jarayoniga ta'siri, inflyatsiya darajasi va ta'siri, aholining investitsiya faoliyatiga jalb etilish darajasi, tadbirkorlar o'rtasida raqobat muhitining rivojlanganlik darajasi, xo'jaliklararo aloqalarning faollik darajasi, eksport imkoniyatlari, xorijiy kapitalning mavjudlik darajasi;

– siyosiy omillar, ya'ni aholining mintaqa yoki mamlakat hokimiyat organlariga ishonchi darajasi, mintaqa rahbariyatining markaziy davlat rahbariyati bilan munosabatlari, ijtimoiy barqarorlik darajasi, milliy, diniy munosabatlarning ahvoli;

– ijtimoiy va madaniy omillar, ya'ni aholi hayot darajasi, maishiy-yashash sharoitlari, tibbiy xizmatning rivojlanganligi, ichkilikbozlik, giyohvandlik va shunga o'xshash salbiy odatlarning aholi o'rtasida tarqalganlik darajasi, jinoyatchilik darajasi, haqiqiy ish haqining o'rtacha miqdori, aholi ko'chishining investitsiya jarayoniga

ta'siri, aholining o'z davlati va chet davlat tadbirkorlariga nisbatan munosabatlari, xorijlik mutaxassislarning ishlashi uchun shart-sharoitlar;

– tashkiliy-huquqiy omillar, ya'ni hokimiyatning o'z va chet davlat investorlariga munosabati, mintaqa rahbariyatining investitsiyaga doir qonun va me'yorlarga amal qilishi; korxonani ro'yxatdan o'tkazish muammolari va uni hal qilish darajasi, ma'lumotlarni olish imkoniyatlari, mahalliy ma'muriyatning malakaviy darajasi, huquqni himoya qilish idoralari faoliyatining samaradorligi, tovarlarni, kapitalni va ishchi kuchini tashish va ko'chirish shart-sharoitlari, mahalliy tadbirkorlarning ishchanlik sifatleri va madaniy-ahloqiy darajasi;

– moliyaviy omillar, ya'ni mintaqa byudjetining daromadlari, aholi jon boshiga byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi, markaziy va mintaqa byudjetlaridan moliyaviy mablag'lar olishning imkoniyatlari, xorij valyutasida kredit olish imkoniyatlari, bank krediti foizlari darajasi, banklararo hamkorlikning rivojlanganligi, har ming aholiga bank kreditlarining to'g'ri kelgan qismi, uzoq muddatli kreditlarning umumiy kredit qo'yilmalaridagi salmog'i, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan omonatlar miqdori, zarar ko'rib ishlovchi korxonalarning umumiy korxonalar tarkibidagi ulushi va boshqalar.

O'ylaymizki, yuqorida keltirilgan omillar mintaqaning investitsiya muhitini etarlicha ifodalab bera oladi.

Qulay investitsiya muhitini yaratishning muhim jihatlaridan biri huquqiy-me'yoriy baza bo'lib, u har bir salohiyatli investorning mulkiy manfaatlarini himoyalashi, kafolatlashi va shuningdek, mamlakatdagi mavjud investitsiya mexanizmining tushunarli va aniq bo'lishini ta'minlashi lozim. Sodda qilib aytganda, investitsiya muhiti investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qo'layliklar majmuasini o'zida aks ettirgan voqelikdir. Investitsiya muhitini yaxshilashdan maqsad investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratish, investitsiya faoliyatini jadallashtirish va pirovardida, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini yaratishdan iborat.

Mamlakatning investitsiya muhiti va uni belgilovchi omillar.¹⁸

Omillar	Mazmuni
Iqtisodiy holat	Mamlakat to'lov balansining holati, valyuta-pul tizimi barqarorligi, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish holati, ichki bozor sig'iminining kattaligi, inflyatsiya darajasi, yalpi ichki mahsulot, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari
Huquqiy baza	Yangi sharoitlarga mos keladigan, mamlakat va uning alohida tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqaradigan huquqiy-me'yoriy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Qonunlari, respublika Prezidentining farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari, tegishli nizom va yo'riqnomalarning mavjudligi
Tabiiy xom ashyo resurslari	Mineral, xom ashyo, yoqilg'i-energetika va suv resurslari zaxiralari, qishloq xo'jaligi xom ashyosini ishlab chiqarish hajmlari
Mehnat resurslari va bandlik	Iqtisodiy faol aholi soni, band aholi ulushi, ishsizlik darajasi, xizmatchilar daromadi darajasi, kadrlarning malaka darajasi, aholining savodxonligi
Ishlab chiqarishning texnik bazasi	Asosiy ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, uskunalarning foydalanish muddati, asosiy fondlarning eskirishi darajasi
Ilmiy-texnika salohiyati	Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmlari, investitsiya risklari darajasi, ishlab chiqarishning texnik jihozlanishi, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish va ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari sohasini rivojlantirish holati, mahsulotning fan sig'imkorligi katta va yuqori texnologik turlarini ishlab chiqarish
Moliya-kredit tizimi	Soliq va kredit siyosati, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining foydalilik va rentabellik darajasi, narx siyosati
Infratuzilma	Bank tizimining rivojlanishi holati, transport, kommunikatsiya xizmatlari va mexmonxona xo'jaligi sohalari, tovar va fond birjalari, marketing, konsalting, auditorlik xizmatlari, sug'urta sohasi tarmog'ining ishonchliligi
Ekologik vaziyat	Atrof-muhitning ifloslanish darajasi, radiatsion fon, zararli chiqindilar, tabiiy iqlim va uning o'zgarishi

Mamlakatning investitsiya muhitini shakllantiradigan omillar majmuini 1-jadval

¹⁸ Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010. – B. 174.

orqali ifodalash mumkin.

Har qanday davlatga investitsiyalarning kirib kelishi va rivojlanishi mazkur mamlakatdagi investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarga bevosita bog'liq bo'ladi. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar, asosan, to'rt guruhga bo'linib, ular huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni tashkil etadi (2-jadval).

O'zbekistonda jahon talablariga mos, milliy xususiyatlarga xos investitsiya dasturlari va loyihalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun quyidagi qo'shimcha chora-tadbirlarni bajarish lozim bo'ladi: iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni proportsional jalb etishning umumlashgan aniq dasturini ishlab chiqish; tarmoq xususiyati va iqtisodiyot rivojiga qarab erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish; tarmoqlardagi mas'ul xodimlarning xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi faolligi va mas'ulligini oshirish; tarmoqlarda aloqa, telekommunikatsiyani rivojlantirish orqali investorlarning erkin va to'liq axborotlar olishini ta'minlash. O'zbekistonda xorijiy investorlar faoliyati uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va xorijiy investorlarni respublikaga ko'proq jalb etish maqsadida qator soliq va bojxona imtiyozlari belgilangan.

Har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti, birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorligidadir. Xuddi ana shu omil xorijlik investorlarning boshqa mamlakatga uzoq muddatli shartnomalar asosida resurslarni kiritish imkoniyatini beradi. Bunday muhit uzoq muddatli investitsiya rejalarini amalga oshirishda juda muhimdir. O'zbekistondagi investitsiya muhitining asosiy xususiyati uning Markaziy Osiyoda eng barqaror mamlakat ekanligidadir. Albatta, bu erda xorijiy investor u yoki bu mamlakatda o'z kapitalining xavfsizligini ta'minlash masalalariga, birinchi navbatda, e'tiborini qaratadi. Shundan keyin, u o'z kapitalidan foyda olishning qanchalik samaradorligi haqida o'ylab ko'radi. Demak, investitsiya muhiti investor uchun shunday bir shart ekanki, unda investor u yoki bu mamlakatga kiritayotgan kapitalning riski haqida o'ylab kuradi.

Investitsiya muhiti holatini belgilovchi kengaytirilgan omillar¹⁹

Ta'sir etuvchi omillar guruhi	Ko'rinishlari
Siyosiy omillar	1. Davlatning investitsiyalar, xususan, xorijiy investitsiyalar bo'yicha siyosati 2. Davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi 3. Mamlakatning xalqaro shartnomalarga qo'shilganlik darajasi 4. Mamlakatning xalqaro bitimlarga rioya qilishi 5. Siyosiy ahvolning barqarorligi (siyosiy harakatlar, to'qnashuvlar, qo'shni davlatlarning osoyishtaligi) 6. Siyosiy hokimiyatning maqsadli harakati 7. Davlat apparatining samarali ish yuritishi 8. Ko'p partiyaviylik va siyosiy guruhlarining mavqei 9. Soliq, valyuta, narx, pul-kredit siyosatining investitsiya siyosatiga uyg'unligi 10. Mamlakatdagi ekologik vaziyat va hukumatning ekologik sog'lomlashtirish bo'yicha siyosati ko'lami
Iqtisodiy omillar	1. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli 2. Inflyatsiya darajasi 3. Soliq imtiyozlari 4. Bojxona tartibi 5. Mamlakatning tabiiy va xom ashyo resurslari holati 6. Ishchi kuchi holati va qiymati 7. Ishchi kuchidan foydalanish tartibi 8. Muayyan tovarlar uchun talab va taklif 9. Raqobat va bahoning erkinligi 10. Valyuta konvertatsiyasi va milliy valyuta kursining barqarorligi 11. Bank foiz stavkalari 12. Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari 13. Mamlakatning geografik-hududiy jihatdan joylashuvi (tabiiy ofatlar, dengiz va quruqlik yo'llari, iqlim sharoiti)
Ijtimoiy omillar	1. Xususiy mulk hamda xorijiy investitsiyalarga nisbatan mahalliy aholi munosabati 2. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli 3. Aholining mafkuraviy qarashlari va ularning turli-tumanligi 4. Mamlakatda turli millatlikka nisbatan mavjud munosabat 5. Aholining savodxonlik darajasi 6. Ishchi-mutaxassislar malakasi, ko'nikmalari va tajribalarining o'sib borishi 7. Yangiliklar va turli xil ixtirolarga aholining munosabati va ularni qabul qilish darajasi
Huquqiy omillar	1. Investitsiya faoliyati huquqiy asoslarining mustahkamlik darajasi 2. Investitsiya faoliyatini bevosita ta'minlovchi huquqiy asosning mustahkamlik darajasi 3. Investitsiya faoliyatining me'yoriy asoslari (farmonlar, qarorlar, qonunlar, nizomlar, yo'riqnomalar va h.k.)

¹⁹ Jo'rayev A.S, Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B. «Investitsiya loyihalari tahlili» Toshkent «Sharq»2007-59b

Buning uchun u kapital riskiga ta'sir etuvchi qo'yidagi omillarni e'tiborga oladi:

- mamlakat ichkarisidagi siyosiy barqarorlik;
- mintaqadagi yaqin qo'shnichilik munosabatlari;
- hukumatning investitsiya munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan qonun-qoidalarining mukammallik darajasi.

O'zbekistonda investitsiya muhiti yildan-yilga barqarorlashib borayotgan bo'lsa-da, lekin, hozircha iqtisodiyotga yirik hajmdagi investitsiyalar asta-sekinlik bilan kirib kelmoqda. Bunga: O'zbekistonning dengiz savdo yo'llariga to'g'ridan-to'g'ri chiqa olmasligi; telekommunikatsiya aloqalarining sust rivojlanganligi; iqtisodiyotda milliy valyuta qadrining erkin almashadigan valyuta kursiga nisbatan pastligi; ayrim qonunlar va me'yoriy hujjatlardagi kamchiliklarning mavjudligi va xususan, foydali qazilmalar bo'yicha maxsus qonunlarning qabul qilinmaganligi; kredit tizimidagi, valyutani konvertatsiyalashdagi mavjud kamchiliklar va qimmatli qog'ozlar bozorining endigina rivojlanib kelayotganligi kabilar sabab bo'lmoqda, deb bilamiz.

Demak, bugungi kunda respublika iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga yaqinlashtirish zarur. Buning uchun tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo'jalik ishlarini yurituvchi sub'ektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o'rnatish, tovarlarni eksport-import qilishda birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilish borasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat olib borish lozim. Bunda investitsiya riskini e'tiborda tutmoq juda muhimdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, respublikada muayyan darajada xorij kapitalini qabul qilish tizimi shakllangan. Bunda xorij kapitaliga nisbatan davlat siyosatini ifoda etadigan huquqiy me'yorlar, qoidalar va muassasalar majmui nazarda tutiladi. Xorij kapitalini qabul qilish tizimi investitsiya muhitining tarkibiy qismiga kiradi va ayni paytda mustaqil hisoblanadi, chunki bu tizimni o'zgartirish xususiyatiga ega. Bu tizimning elementlari quyidagilardan iborat; xorij kapitali uchun soliq va bojxona imtiyozlarini berish; foydani boshqa iqtisodiyotga o'tkazishning qulay rejimi; milliyalashtirishdan kafolatlar; ro'yxatdan o'tkazishning oddiy tartib qoidalari; kontsessiyalar berish; erkin iqtisodiy zonalar barpo etish; aktsiyadorlik kapitalida

hissani cheklash; narxlarni nazorat qilish; tashqi savdo operatsiyalarini litsenziyalash va boshqalar.

Qulay investitsiya muhitini rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish beqiyos ahamiyatga ega. Soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini to'rt jihatdan olib qarash mumkin, ular: soliq to'lashdan vaqtinchalik ozod qilish; soliq stavkasini kamaytirish; soliqqa tortiladigan bazani toraytirish; soliq majburiyatini bajarishni kechiktirish (soliq krediti). Qayd qilingan rag'batlar u yoki bu darajada xorij investitsiyalar ishtirokidagi keng doiradagi korxonalar uchun tatbiq etiladi. Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarining amal qilishini, shuningdek, investitsiyalarni inson kapitaliga, texnologik o'sish va texnika bilimlari sohalarini rivojlantirishga, kengaytirishga ham joriy qilish kerak. Bularning barchasi O'zbekistonda investitsiya muhitini modellashtirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Bu model xorijiy investorga ta'sir ko'rsatadigan omillar to'g'risida mukammal ma'lumot to'plash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yaqqol baholash hamda xorijlik sheriklar harakatlari motivatsiyasini anglash, xorij investitsiyalarini tartibga solishning asosiy vositalarini isloh qilish imkoniyatlarini yaratadi.

O'zbekistonda intellektual salohiyatni o'stirish uchun kapital qo'yish kelajakda respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning eng asosiy omillaridan bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun bu sohada kapital qo'ygan investorlarga soliq imtiyozlarini berish o'ta muhimdir.

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining jadal sur'atlarda o'sishini quyidagi omillar belgilab bermoqda:

- mamlakatdagi investitsiya muhitining barqarorligi. Bu yirik investitsiya loyihalari uzoq muddatga mo'ljallab amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra xorijiy investorlarga biznes olib borish uchun qulay investitsiya muhiti, ishonch kerak;

- valyuta kursini tartibga solishdagi ijobiy o'zgarishlar. Milliy valyutaning diversifikatsiyalanishuvi mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarga xorijiy tovar ishlab chiqaruvchilar va import qilinadigan tovarlarga nisbatan raqobat kurashida ma'lum afzallikni beradi;

– milliy eksport tarkibidagi asosiy tovarlarga (oltin, mis, paxta) qulay narx kon'yunkturasi yirik milliy eksportyorlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirdi va o'zlarining investitsiya dasturlarini moliyalashtirishning faollashuviga, kengayishiga olib keldi. Bu, o'z navbatida, o'zaro bog'liq tarmoqlar mahsulotiga talabning o'sishiga sababchi bo'ldi;

– davlat moliyasi va davlat qarziga xizmat ko'rsatish holatining mo'tadillashuvi, mamlakatimizga 18 oylik import miqdoriga teng oltin-valyuta zaxiralarining jamlanishiga, byudjet taqchilligini bartaraf etishga va 2005 yildan boshlab byudjet profitsitiga chiqishga imkon berdi. Jumladan, 2013 yilda davlat byudjeti YaIMga nisbatan 0,3 foiz miqdorida profitsit bilan ijro etildi.

Xullas, investitsiya muhiti investorlarning samarali va erkin faoliyat yuritishi uchun yaratilgan muhit bo'lib, uning investorlar uchun qulayligi, jozibadorligi unga ta'sir etuvchi huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarning ta'sir darajasiga bevosita bog'liqdir.

1.3. Xududlarga investitsiyalarni boshqarishning huquqiy va institutsional asoslari

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishdan manfaatdorlik har qanday davlatning o'z investitsiya siyosatini ishlab chiqishini talab etadi. Bu siyosat xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o'ziga xos yo'nalishini, shuningdek, ularni jalb etishni rag'batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonunning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalar amalga oshirilishining huquqiy asoslari va tartibini belgilab berishdan iborat. Ushbu qonunning asosiy vazifalari bo'lib:

– xorijiy investitsiyalar kirib kelishini rag'batlantirish yo'li bilan O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish va uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga ko'maklashishdan;

– xorijning moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarini, zamonaviy

xorijiy texnologiyalarni va boshqaruv tajribasini jalb etish hamda ulardan oqilona foydalanishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi Qonunining maqsadi O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan xorijlik investorlar huquqlarining kafolatlarini va ularni himoya qilish choralari belgilab berishdan iborat bo'lib, uning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- xorijlik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish bo'yicha kompleks choralarni shakllantirish;

- xorijlik investorlar va xorijiy investitsiyalarning ayrim toifalari uchun qo'shimcha kafolatlar berish shart-sharoitlarini va ularni himoya qilish choralari belgilash.

Davlat O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishlari chog'ida ularning barcha huquqlarini kafolatlaydi va himoya qiladi. Davlat tomonidan chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari uchun adolatli va teng huquqli rejim, ularning to'liq va doimiy himoyasi hamda xavfsizligi ta'minlanadi. Bunday rejim O'zbekistonning xalqaro shartnomalarida belgilab qo'yilgan rejimga qaraganda noqulayroq bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalariga muvofiq O'zbekistonning milliy xavfsizligi manfaatlarini himoya etish maqsadida iqtisodiyot va faoliyatning muayyan sohalarida chet el investitsiyalari uchun cheklashlar yoki taqiq nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Xorijlik investorlarga xorij valyutasidagi pul mablag'larni O'zbekistonga va undan tashqariga, ular soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lashi sharti bilan, biron-bir cheklashsiz erkin o'tkazish kafolatlanadi. Bunday o'tkazishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: xorij investitsiyalarini saqlab turish yohud ko'paytirish uchun boshlang'ich va qo'shimcha summalarini; investitsiyalarni amalga oshirishdan tushgan daromadlarni; etkazilgan zararni qoplash uchun tovon sifatida ushbu kunga muvofiq olingan mablag'larni; shartnomalarni ijro

etish tartibida amalga oshirilgan to'lovlarni; xorijiy investitsiyalarning hammasini yoki bir qismini sotishdan kelgan tushumni; nizoni hal qilish, shu jumladan, sud yoki hakamlikning har qanday hal qiluv qarori tufayli vujudga keluvchi to'lovlarni; xodimlarga to'lanadigan ish haqini va boshqa to'lovlarni; qonun hujatlariga muvofiq boshqa manbalardan olingan mablag'larni.


Investitsiyalar va chet ellik investorlarning tavakkalchiligini sug'urta qilish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Chet ellik investorlar mamlakatning o'z investorlari bilan teng ravishda O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy faoliyat ko'rsatayotgan har qanday sug'urta himoyasi huquqidan foydalanadilar. Chet el investitsiyalarini siyosiy va boshqa xavflardan sug'urta qilish xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning eksport kredit agentliklari, boshqa sug'urta kompaniyalari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra, 2005 yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyat bo'yicha daromad (foyda) solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, ekologiya solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etildi. Farmonda belgilanganidek, to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi: 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga; 3 million AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha – 5 yil muddatga; 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning tashabbusi bilan 2008 yilning dekabr oyida keng miqyosdagi mintaqaviy taraqqiyot dasturining mantiqiy davomi sifatida «Navoiy» aeroportining bevosita yaqinida – Buxoro va Samarqand shaharlaridan 100-175 kilometr uzoqlikda 564 gektar maydonni egallagan «Navoiy» erkin industrial iqtisodiy zonasi (EIIZ) tashkil etildi. Yuksak samarali, zamonaviy xorij asbob-uskunolari va

texnikasi, texnologik tarmoqlar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobidan yuqori texnologiyalarga asoslangan, jahon bozorlarida raqobatdosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarish «Navoiy» EIIZ hududida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining asosiy yo'nalishi etib belgilandi.

Quyidagi rasmda erkin iqtisodiy zonalarda qo'llaniladigan imtiyoz turlari ko'rsatib o'tilgan:



2-rasm. Erkin iqtisodiy zonalarda qo'llaniladigan imtiyozlar turlari²⁰

EIZda faoliyat yuritish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiya olib kirgan xo'jalik sub'ektlari er solig'i, mulk solig'i, daromad solig'i, obodonchilik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq to'lovi (kichik korxonalar uchun), Respublika yo'l jamg'armasi va Respublika maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlardan ozod etiladi va buni 3-jadvalda ko'rish mumkin. Mazkur jadvalda mamlakatimizda tashkil etilgan «Angren» maxsus industrial zonasi va «Jizzax» maxsus industrial zonasida amal qiladigan imtiyozlar haqidagi ma'lumotlar ham keltirilgan. O'zbekistonda EIIZlarni tashkil etish va rivojlantirish imkoniyatlari juda keng. Shuni qayd etish kerakki, O'zbekistonda tabiiy boyliklarning, mehnat rusurslarining va hududlarda sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanganligini hisobga olib, kelajakda EIIZning turli ko'rinishlarni tashkil etish mumkin. Shu bilan birga har bir tur hududga mos keluvchi imtiyoz va rag'batlarning standart jamlamasi

²⁰ www.feiz.uz Navoiy erkin iqtisodiy-industrial hududining maxsus sayti

**O'zbekistonda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarda
amal qiladigan imtiyozlar²¹**

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4059 sonli «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4436 sonli «Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi Farmoni	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 martdagi «Jizzax» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi Farmoni
Investitsiya miqdoriga qarab imtiyozlar- ning amal qilish muddati	– 3 mln.dan 10 mln. evrogacha – 7 yil; – 10 mln. dan 30 mln.evrogacha – 10 yil, keyingi 5 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi hajmi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilanadi; – 30 mln. evrodan ortiq bo'lganda – 15 yil, keyingi 10 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilanadi.	– 300 ming dan 3 mln. AQSh dollarigacha – 3 yil; – 3 mln.dan 10 mln. AQSh dollarigacha – 5 yil; – 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil.	– 300 mingdan 3 mln. AQSh dollarigacha – 3 yil; – 3 mln.dan 10 mln. AQSh dollarigacha – 5 yil; – 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil.
Bojxona imtiyozlari	EIIZda faoliyat ko'rsatadigan butun muddatga eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish maqsadida olib kelinayotgan asbob- uskunalar, xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'implardan tashqari) ozod qilinadi.	«Angren» MIZ hududiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallar boj to'lovlari (bojxona yig'implaridan tashqari) to'lashdan ozod qilinadi.	Respublikada ishlab chiqarilmaydigan, loyihalarni amalga oshirish doirasida «Jizzax» MIZ hududiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallar boj to'lovlari (bojxona yig'implaridan tashqari) to'lashdan ozod qilinadi.

²¹ www.feiz.uz Navoiy erkin iqtisodiy-industrial hududining maxsus sayti

Prezidentimiz I.Karimovning 2012 yil 10 apreldagi «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investorlar uchun yanada qulay moliyaviy sharoitlar yaratildi. Mazkur Farmonda belgilanishicha, xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo'lmagan yangidan tashkil etilayotgan XIIKlar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida, soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llashga haqlidirlar. Farmonga muvofiq, qiymati 50 million AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish byudjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Xullas, O'zbekistonning qonun hujjatlari bilan quyidagilar ta'minlanadi: investitsiya faoliyatining milliy va chet ellik sub'ektlari uchun barcha qulayliklar; chet ellik investorlar huquqlarining davlat kafolatlari, zarur hollarda qo'shimcha kafolatlar va himoya tadbirlari; mablag'lardan foydalanish va mablag'larni o'tkazish kafolatlari, investitsiya faoliyati to'xtatilishi munosabati bilan chet el investitsiyalarini qaytarish kafolatlari; ochiq axborotlardan erkin foydalanish.

Xo'jalik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarishni muntazam modernizatsiya qilish, texnik-texnologik jihatdan qayta jihozlash, uni yuqori sifatli, raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini beradigan ilg'or zamonaviy uskunalar bilan ta'minlashga qaratilgan samarali rag'batlantirish tizimini yaratish maqsadida 2007 yil 14 martida O'zbekiston Prezidentining «Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni

rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonining qabul qilinishishi respublikaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish asosida iqtisodiyot tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilishni faollashtirishga yo'naltirilgan navbatdagi amaliy qadam bo'ldi.

Chet ellik investor xalqaro huquq printsiplari va O'zbekistonning qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

- investitsiyalashni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;

- investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;

- o'zining investitsiyalariga va investitsiya faoliyatining natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish. Chet ellik investorning qaroriga binoan investitsiyalarga, ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, tasarruf etish huquqlari O'zbekistonning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Huquqlar boshqa shaxsga berilganda taraflarning o'zaro munosabatlari shartnomalar asosida tartibga solinadi;

- O'zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyati natijasida olingan o'ziga qarashli ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarini chet ellarda va O'zbekistonda patentlashtirish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish;

- investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadni mustaqil va erkin tasarruf etish (shu jumladan, uni moneliqsiz repatriatsiya qilish);

- O'zbekiston Respublikasiga kreditlar va qarzlar tariqasida pul mablag'lari jalb etish;

- o'z hisobvarag'idagi milliy valyuta mablag'laridan ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish uchun foydalanish;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda er uchastkalariga doir huquqlarni sotib olish;

O'zbekistonning qonun hujjatlariga muvofiq, o'ziga mulk huquqi asosida qarashli bo'lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan zimmaga olgan

majburiyatlarning, shu jumladan, qarz mablag'larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning barcha turlari bo'yicha ta'min sifatida foydalanish;

– o'z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya qilingan taqdirda mutanosib ravishda tovon olish;

– davlat boshqaruv organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) hamda qarorlari natijasida etkazilgan zararlarni undirish.

Chet ellik investor O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadir.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, respublikada muayyan darajada xorij kapitalini qabul qilish tizimi shakllangan. Bunda xorij kapitaliga nisbatan davlat siyosatini ifoda etadigan huquqiy me'yorlar, qoidalar va muassasalar majmui nazarda tutiladi. Xorij kapitalini qabul qilish tizimi investitsiya muhitining tarkibiy qismiga kiradi va ayni paytda mustaqil hisoblanadi, chunki bu tizimni o'zgartirish xususiyatiga ega. Bu tizimning elementlari quyidagilardan iborat; xorij kapitali uchun soliq va bojxona imtiyozlarini berish; foydani boshqa iqtisodiyotga o'tkazishning qulay rejimi; millilashtirishdan kafolatlar; ro'yxatdan o'tkazishning oddiy tartib qoidalari; kontsessiyalar berish; erkin iqtisodiy zonalar barpo etish; aktsiyadorlik kapitalida hissani cheklash; narxlarni nazorat qilish; tashqi savdo operatsiyalarini litsenziyalash va boshqalar.

Xullas, investitsiya muhiti investorlarning samarali va erkin faoliyat yuritishi uchun yaratilgan muhit bo'lib, uning investorlar uchun qulayligi, jozibadorligi unga ta'sir etuvchi huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarning ta'sir darajasiga bevosita bog'liqdir.

II BOB. XORAZM VILOYATI URGANCH SHAXRINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH VA INVESTITSION FAOLLIGI TAHLILI

2.1. Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va investitsiya siyosatini boshqarishning hozirgi darajasi

Ma'lumki, xududning barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi muhim jarayonlardan biri investitsiya faoliyati, muhiti, salohiyati va jozibadorligi hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni ob'ektiv zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari xudud iqtisodiyotining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashdagi rolini yanada oshirish uchun investitsiyalarga bo'lgan talabi va taklifi o'rtasidagi mutanosiblik, investitsiyalardan foydalanish darajasi va samaradorligi, investitsiya faolligi, pirovardida esa investitsion jozibadorlikni nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish muhim masaladir.


4-jadval

Xorazm viloyatining 2011-2015 yillarda YaHM tuzilmasi²²

Tarmoqlar	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.
YaHM	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Sanoat	7,9	9,2	9,2	9,5	11,9
Qishloq xo'jaligi	33,9	35,2	34,6	33,8	31,7
Qurilish	6,2	7,9	8,3	9,4	10,9
Savdo va umumiy ovqatlanish	9,0	9,6	8,7	8,7	8,5
Boshqa xizmatlar va sof soliqlar	43,0	38,1	39,2	38,6	37,1
YaHMni Respublika YaIMdagi ulushi	3,3	3,3	3,0	3,0	3,3

4-jadval ma'lumotlarida 2012-2015 yillardagi Xorazm viloyati YaHMda sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, savdo va umumiy ovqatlanish va boshqa xizmatlar va sof soliqlar o'sish tendentsiyasi yanayam atroflicha ko'rinishda bo'lgan. E'tibor qaratar ekanmiz, bunda ham eng yuqori ulush sanoat tarmog'i ekanligi yorqin ko'ringan.

²² Xorazm viloyati iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlariga tayanib ishlab chiqilgan.



3-rasm. Xorazm viloyatining 2012-2015 yillarda YaHM ayrim tarmoqlar tuzilmasi va ularning YaHMDagi ulushi²³

Xorazm viloyati Urganch shaxar hokimligi moliya va iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlariga tayanib 4-jadval ma'lumotlarini taxlil qiladigan bo'lsak, Xorazm viloyati YaHMda sanoatning ulushi 2007 yilda 7,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda 11,9 foizga oshgan bu o'sish tendentsiyasi 4 foizga yetgan. Bu viloyatda sanoat ishlab chiqarishi samarali yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi. Viloyat YaHM tarkibiy qismida eng yuqori ulush qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Boshqa tarmoqlarga nisbatan qishloq xo'jaligi ulushi 2011 yilda 33,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda bu ko'rsatkich 31,7 foizni tashkil yetgan. Bunday o'sish tendentsiyalari 3-rasmda yanada yaqqolroq namoyon bo'lgan. Xususan rasmga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qurilish sohasi viloyat YaXMida o'sishi kuzatilgan. Albatta bunday o'sish viloyatda qurilish rekonstruktsiya ishlarining samarali yo'lga qo'yilayotganligi va viloyatning bandligini ta'minlashda davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat dasturiga muvofiqligi hamda viloyatga kirib kelayotgan investitsiyalar salmog'i, soha va tarmoqlarning taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shuningdek, savdo va umumiy ovqatlanish viloyat YaXMida 2011-

²³ Xorazm viloyati iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlariga tayanib ishlab chiqilgan.

2015 yillardagi salmog'i pasayish tamoyiliga ega bo'lgan. Bunday pasayish raqobatning keskin kuchayishi oqibatida yuzaga kelgan.

5-jadval

Xorazm viloyatida 2012-2014 yillarda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar²⁴

tr	Tarmoqlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil
1.	YaHM, mlrd.so'm	3008,0	3698,5	4736,3
2.	Sanoat mahsulotlari xajmi, mlrd.so'm	833,8	1085,4	1651,7
3.	Xalq iste'moli mollari xajmi, mlrd.so'm	451,7	568,7	1011,7
4.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari xajmi, mlrd.so'm	1595,7	1858,4	2236,8
5.	Asosiy kapitalga investitsiyalar xajmi, mlrd.so'm	700,1	1148,5	1220,6
6.	Qurilish ishlari xajmi, mlrd.so'm	528,7	790,3	1019,5
7.	Chakana savdo aylanmasi xajmi, v mlrd.so'm	1566,6	1959,6	2341,3
8.	Xizmatlar - jami, mlrd.so'm	1445,7	1994,2	2498,8
9.	shu jumladan, pullik xizmat ko'rsatish, mlrd.so'm	556,2	751,5	963,6
10.	Tashqi savdo aylanmasi, mln. AQSh dollari	247,8	298,3	351,3
11.	Eksport, mln. AQSh dollari	155,0	198,1	179,6
12.	Import, mln. AQSh dollari	92,8	100,2	171,7
13.	Tashqi savdo aylanmasi saldosi (+, -)	62,2	97,9	7,9

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l berilmoqda. Bu viloyat ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan ham bilish mumkin. Xorazm viloyatida 2012-2015 yillarda kichik biznes sub'ektla-rining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi to'g'risidagi ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak (6-Jadval), 2012 yilda yangidan tashkil etilgan kichik biznes sub'ektlar soni 731 tani tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda bu ko'rsatkich 1201 tani tashkil etgan. Yalpi hududiy

²⁴ Xorazm viloyati iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlariga tayanib ishlab chiqilgan.

mahsulotda KBSlarining ulushi 2012-2015 yillardagi ulushi ham o'sish tamoyiliga ega bo'lgan. Viloyat yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes sub'ektlarining ulushi 2012 yil 73,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda 73,9 foizga o'sgan.

6-jadval


Xorazm viloyatida 2012-2015 yillarda kichik biznes sub'ektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi to'g'risida²⁵

tr	Ko'rsatkichlar	2012 y.	2013 y.	2015 y.
1.	Yalpi hududiy mahsulotda KBSlarining ulushi	73,5	73,8	73,9
2.	Sanoatda KBSlarining ulushi	34,1	36,8	29,7
3.	Investitsiyada KBSlarining ulushi	49,6	32,7	39,2
4.	Jami xizmatlarda KBSlarining ulushi	62,8	60,5	62,4
5.	Pullik xizmatlarda KBSlarining ulushi	53,8	49,8	50,2
6.	KBSlarida band aholi ulushi	79,1	78,5	79,4
7.	Kichik biznes sub'ektlari soni (yil yakuni bilan)	10501	10344	10762
8.	Yangidan tashkil etilgan KBS soni	731	1058	1201
9.	Tugatilgan KBS soni	1513	917	782

6-jadval Xorazm viloyatida 2012-2015 yillarda kichik biznes sub'ektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznes sub'ektlarining jami investitsiyalardagi ulushi ham 2012 yildagi 49,6 foizdan 2015 yil 39,2 foizga kamaygan. Bu 6-rasmda ham yaqqol ko'ringan.

Investitsiya, investitsiya faoliyati, investitsion jozibadorlikka doir ko'plab olimlarning ilmiy ishlanmalarini o'rganish va tahlil qilish natijasida xududning investitsion jozibadorligi tushunchasiga quyidagicha ta'rif berildi: "Mintaqaning investitsion jozibadorligi – bu investorlar uchun alohida mintaqaga yoki ushbu mintaqada joylashgan ob'ektlarga investitsiyalarni joylashtirishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligi, shuningdek investitsiya tavakkalchiligi to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantiruvchi tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy va boshqa omillarning yig'indisidir".

²⁵ Xorazm viloyati iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlariga tayanib ishlab chiqilgan.



4-rasm. Kiritilgan investitsiyalar hajmi²⁶

Xorazm viloyatida 2012-2015 yillarda kam quvvatli, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni sog'lomlashtirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 2012 yilda 109 ta korxona sog'lomlashtirilgan bo'lsa, 2015 yilga kelib esa 389 ta korxona sog'lomlashtirilgan. Bu bevosita qariyb 2721 ta aholi bandligini ta'minlashga yo'l ochib bergan.

4-rasm ma'lumotlariga tayanib taxlil qiladigan bo'lsak, Xorazm viloyatiga 2012 yilda 54,4 mln.dollarlik investitsiya kiritilgan bo'lsa, 2015 yilda investitsiya sur'ati 57 mln.dollarga o'sgan. Albatta bunday o'sish viloyatdagi ayrim soha va tarmoqlarning jadal taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Shuningdek, investitsiyalarning kiritilishi bevosita xududning turli tarmoqlari rivojlanishiga olib kelish barobarida aholi ish bilan bandligining ta'minlanishiga olib kelgan.

Investitsiyalarning kiritilishi birinchi navbatda aholi turmush farovonligini oshishiga va aholi daromadlarining yuqori sur'atlarda o'sishiga olib kelgan. Albatta bunday o'sish xududning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori sur'atlarda rivojlanishiga olib kelgan.

²⁶ Xorazm viloyati iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlariga tayanib ishlab chiqilgan.

Xorazm viloyatida 2013-2015 yillarda kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar to'g'risida²⁷

tr	Shahar va tumanlar nomi	2013 yilda		2014 yilda		2015 yilda	
		Xorijiy investitsiya va kreditlar	shundan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	Xorijiy investitsiya va kreditlar	shundan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	Xorijiy investitsiya va kreditlar	shundan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar
1	Urganch shahri	4569,6	x	49491,9	x	8904,4	x
2	Bog'ot tumani	0	x	73,9	x	0	x
3	Gurlan tumani	0	x	0	x	0	x
4	Ko'shko'pir tumani	0	x	0	x	0	x
5	Urganch tumani	0	x	0	x	0	x
6	Xazarasp tumani	6039,1	x	3000,5	x	132,2	x
7	Xiva tumani	0	x	93	x	0	x
8	Shovot tumani	0	x	0	x	0	x
9	Yangiariq tumani	0	x	0	x	0	x
10	Yangibozor tumani	0	x	0	x	0	x
Viloyat bo'yicha jami		74601,1	11168,1	58866,7	21742,6	12991,8	6171,9

7-jadvalni tahlil qilish asosida quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin, viloyat bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar 2013-yilda 74601,1 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda 12991,8 ni ko'rsatgan, ya'ni xorijiy investitsiya va kreditlarning birligi pasaygan.

²⁷ Xorazm viloyati iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlariga tayanib ishlab chiqilgan.

2.2. Urganch shahridagi korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari va investitsiyalar samaradorligi tahlili

Shaharni 2016-2018 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturiga asosan 2016 yilda jami 406,0 mlrd.so'm investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga 188 ta loyihalarni amalga oshirish va ularda 2 864 nafar yangi ish o'rinlarini tashkil etish ko'zda tutilgan.

Xususan,

- sanoatda 62 ta(359,5 mlrd.so'm, 1 775 nafar ish o'rni);
- xizmatlar sohasida 122 ta(42,6 mlrd.so'm, 1 052 nafar ish o'rni);
- qishloq xo'jaligida 4 ta(3,9 mlrd.so'm, 37 ta ish o'rni).

Sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi doirasida 2016 yilda "Uzbekneftegaz" MXK tomonidan 50 nafar yangi ishchi o'rni tashkil qilishga mo'ljallangan 130,0 mlrd.so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga "Xorazm (XIV) i Meshekli-Tuzkoy (XXXII) investitsion bloklarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish" hamda 550 nafar yangi ishchi o'rni tashkil qilishga mo'ljallangan 65,0 mlrd.so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga "Katta diametrli bir to'g'ri yo'lli po'lat quvurlar ishlab chiqarishni tashkil etish" kabi yirik sanoat loyihalarining amalga oshirilishi belgilangan.

2016 yilning 1-choragida 1,8mlrd.so'm investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga 5 ta loyihalarni amalga oshirish va ularda 20 nafar yangi ish o'rinlarini tashkil etish belgilangan bo'lib, amalda joriy yilning yanvar-mart oylarida 2,0 mlrd.so'mlik (o'z mablag'i 610,0 mln.so'm, bank krediti 1,4 mlrd.so'm) investitsiyalar o'zlashtirilib, 6 ta loyiha amalga oshirildi va yangidan 22 nafar ish o'rinlari yaratildi.

Jumladan:

1. "ELEGANT PERFECT PLAST" MChJ tomonidan "Alyuminiy profildan oyna va eshik romlari" ishlab chiqarish;
2. "CHOLISH TREYDING" xususiy korxonasi tomonidan "Ruberoid va polizol mahsulotlari" ishlab chiqarish;

3. "XORAZM MEGA BETON" MChJ tomonidan "Temir beton mahsulotlari" ishlab chiqarish;

4. Yakka tadbirkor "Abdulkarimov Doniyor Ruziboevich" tomonidan "Alyuminiy va plastikdan deraza, eshik va boshqa buyumlar" ishlab chiqarish;

5. "SAFO MEBEL" MChJ tomonidan "Mebel mahsulotlari" ishlab chiqarish;

6. "Best meat" MChJ tomonidan "Go'sht mahsulotlarini qayta ishlash" loyihalari amalga oshirildi.

Xizmat ko'rsatish va servis dasturi doirasida 2016 yilda "BOBUR TRANS LOGISTIK" MChJ tomonidan 20 nafar yangi ishchi o'zni tashkil qilishga mo'ljallangan 1880,0 mln.so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga "Ichki va xalqaro yuk tashishlarni yo'lga qo'yish bo'yicha transport-logistika markazini kengaytirish" loyihasi, "MED KOMPLEKS" MChJ tomonidan 50 nafar yangi ishchi o'zni tashkil qilishga mo'ljallangan 1,2 mlrd.so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga "Sport va sog'lomlashtirish markazi, Kafe va savdo maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalarini tashkil qilish" kabi xizmat ko'rsatish loyihalarining amalga oshirilishi belgilangan.

2016 yilning 1-choragida 6,2 mlrd.so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga 20 ta loyihalarni amalga oshirish va ularda 95 nafar yangi ish o'rinlarini tashkil etish belgilangan bo'lib, amalda joriy yilning yanvar-mart oylarida 7,7 mlrd.so'mlik(o'z mablag'i 5,4 mlrd.so'm, bank krediti 2,3 mlrd.so'm) investitsiyalar o'zlashtirilib 27 ta loyiha amalga oshirildi va yangidan 150 nafar ish o'rinlari yaratildi.

Ma'lumot uchun:

1. "Doniyor Dizayn Lyuks" XK tomonidan 860,0 mln.so'm miqdoridagi investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga yangidan tashkil qilingan xizmat turlari ichida zamonaviy va shaxarda yagona bo'lgan sur'atlar galereyasi tashkil qilinib, 10 nafar ish o'zni;

2. "Elegant Farm" MChJ tomonidan 1700,0 mln.so'm miqdoridagi investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga tashxiz xizmati tashkil qilinib, 8 nafar yangi ish o'zni;

3. “Jelannaya mehta” XK tomonidan 250,0 mln.so'm miqdoridagi investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga maishiy xizmat ko'rsatish markazi tashkil qilinib, 14 nafar ish o'rni;

4. “Evroaziya” MChJ tomonidan 130,0 mln.so'm miqdoridagi investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchasi tashkil qilinib, 10 nafar ish o'rni;

5. “Rodnik” MChJ tomonidan 150,0 mln.so'm miqdoridagi investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchasi tashkil qilinib, 8 nafar ish o'rinlari yaratilishiga erishilib, shahar va viloyat aholisiga xizmat ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasida 2016 yilda sovutkichli sig'irlar hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini quritish bo'yicha 3,9 mlrd.so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga 4 ta loyihalarni amalga oshirish va ularda 37 nafar yangi ish o'rinlari tashkil etish va loyihalar 2016 yil 4-chorakda ishga tushirilishi belgilangan²⁸.

Korxonadagi tahlilni “Elegant Farm” MCHJ chakana tovar aylanmasi umumiy xajmi tahlilidan boshlashni maqsadga muvofiqdir. (8-jadval).

8-jadval

“Elegant Farm” MCHJning 2010-2015 yillardagi chakana tovar aylanishi rejaga nisbatan bajarilishi taxlili (ming so'm)²⁹.

№	Yillar	Chakana tovar aylanishi rejada	Chakana tovar aylanishi xaqiqatda	Farqi (+,-)	Reja bajarilish foizda
1.	2013	2353442,7	2397979,2	44536,5	101,9
2.	2014	2442319,6	2477916,2	35596,6	101,5
3.	2015	2435687,5	2446859,4	11171,9	100,5

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, “Elegant

²⁸ Xorazm viloyati Urganch shahar iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlari asosida talaba taxlili.

²⁹ Manba: “Elegant Farm” MCHJning yillik moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida hisoblandi.

Farm” MCHJ chakana tovar aylanmasi kursatkichlari 2013 yilda rejadagi 2353442,7 ming so'm urniga xaqiqatda 2397979,2 ming so'mlik tovarlar sotilgan va rejaga nisbatan 44536,5 ming so'mga yoki 1,9 %ga oshgan. Xuddi shunday rejaga nisbatan xaqiqatda o'sish tendentsiyasini bizlar 2013, 2014 va 2015 yillarda ham ko'rishimiz mumkin. Korxonada rejaga nisbatan eng yuqori o'sish tendentsiyasi 2013 yilda kuzatilib, 2015 yili rejaga nisbatan xaqiqatda 44536,5 ming sumga yoki 1,9 %ga oshgan.

Umuman olganda “Elegant Farm” MCHJ chakana tovar aylanmasi kursatkichlari 2013 yildan 2015 yilgacha bo'lgan to'rt yil mobaynida har yili o'sish tendentsiyasiga va rejani ortig'i bilan bajarilishiga guvox, bo'lishimiz mumkin.

Hozirda mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida savdo korxonalarining yalpi daromadi va foydasini tahlil etishdan asosiy maqsad, xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy holati, uning daromad, foyda va zararlari tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar to'g'risida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishdan iborat.

Tahlilning keyingi bosqichida bizlar korxonaning daromad va xarajatlarini tahlil etishni maqsad qilib oldik, sababi savdo korxonalarining daromad va xarajatlarini tahlil etish orqali, xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy holati, uning daromad, xarajat, foyda va zararlari tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar tug'risida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Korxona yillik hisoboti ma'lumotlari asosida dinamika tarzida daromad va xarajatlar tarkibi, strukturasi, ularning o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi xdmida daromadlardan samarali foydalanish, xarajatlarning maqsadga muvofiq yo'nalishi tahlil etiladi.

9-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, “Elegant Farm” MCHJda jami daromadlari asosan mahsulot(ish, xizmat)larni sotishdan kelgan tushum hisobiga shakllangan. Korxona daromadlari 2015 yilda 2014 yilga nisbatan 4957,9 ming so'mga kamaygan. Bunday kamayishga asosiy sabab, korxona chakana tovar aylanmasi xajmining 2014 yilga nisbatan kamayganligi hisoblanadi. Korxona

daromadlar summasining kamayishi salbiy holatdir.

9-jadval

“Elegant Farm” MCHJ yalpi daromadining tarkibi va tuzilishi tahlili (ming so`m).³⁰

№	Ko'rsatkichlar	2014 yil	2015 yil	Farqi (+,-)	O'zgarish sur'ati, %
1	Mahsulot (ish, xizmat) larni sotishdan kelgan tushum	2477916,2	2446859,4	-31056,8	98,7
2	Asosiy faoliyatning boiqa jarayonlaridan olingan daromadlar	X	X	-	-
3	Moliyaviy faoliyatning daromatlari	996,5	27095,4	26098,9	27,2 marta
4	Favqulodda daromadlar	X	X	-	-
	Jami daromadlar (1k+2k+3k+4k)	2478912,7	2473954,8	-4957,9	99,8

“Elegant Farm” MCHJda daromadlar dinamikai to'g'risida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish maqsadida 10 jadvalni tuzdik. 10 jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki “Elegant Farm” MCHJning yalpi daromatlari 2014 yildan 2015 yillar mobaynida bir tekis o'sish tendentsiyasida rivojlangan. Ammo 2014 yilda daromadlar summasi biroz kamaygan.

Korxona yalpi daromadlarining so'nggi besh yildagi eng yuqori o'sish tendentsiyasi 2015 yilda kuzatilgan bo'lib 2014 yilga nisbatan 1080395,1 ming so'm va 77,3 foizga oshgan.

Korxonaning xarajatlarini qoplash manbai bo'lib, savdo ustamolari xizmat qiladi. Ular tovarlar chakana bahosi bilan tovarlarni sotib olish (ulgurji savdodan, ishlab chikarish dan yoki boshqa vositachilardan) bahosi o'rtasidagi farqi sifatida aniqlanadi.

³⁰ Manba: “Elegant Farm” MCHJning yillik moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida hisoblandi.

**“Elegant Farm” MCHJning 2010-2014 yillardagi yalpi daromadlari
dynamikasi.³¹**

Yillar	Yalpi daromadi, ming so'm	Absolyut o'sishi, ming sum		O'zgarish sur'ati, %	
		O'tgan yilga nisbatan	2010 yilga nisbatan	O'tgan yilga nisbatan	2010 yilga Nisbatan
2011	1398517,6	-	-	100,0	100,0
2012	1714947,6	316430,0	316430,0	122,6	122,6
2013	2402308,2	687360,6	1003790,6	140,1	171,8
2014	2478912,7	76604,5	1080395,1	103,2	177,3
2015	2473954,8	-4957,9	1075437,2	99,8	176,9

Bizlar “Elegant Farm” MCHJ xarajatlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlil qilishni lozim topdik (10 jadval).

10 jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki “Elegant Farm” MCHJda jami xarajatlari 2015 yilda 2014 yilga nisbatan - 14179,3 ming so'mga kamaygan. Korxona xarajatlar summasining kamayishi asosan sotilgan mahsulot(tovar, ish va xizmat)larning tannarxi va davr xarajatlarining kamayganligi tufayli ro'y bergan.

Foyda tahlili mukammal bo'lishi uchun tahlil mobaynida ushbu ko'rsatkichlar oldingi yillar bilan solishtirilishi, ularning so'nggi yillardagi dinamikasi o'rganib chiqilishi lozim. Foyda va rentabellikning dinamik tahlili oldingi qabul kilingan boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash, shuningdek foyda ko'rsatkichlarining ko'payish tendentsiyasini belgilab olish imkoniyatlarini yaratadi.

³¹ Manba: “Elegant Farm” MCHJning yillik moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida hisoblandi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Ikkinchi bob bo'yicha quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin, Xorazm viloyatida qo'shma korxonalar soni umumiy holatda 2012-yilda 30 tani tashkil etib, ularning asosiy qismi, ya'ni 14 tasi Urganch tumanida joylashgan edi, 2015-yilda bu ko'rsatkich 31 tani tashkil etib, Xiva, Xonqa va Shovot tumanlarida qo'shma korxonalarning soni oshganini, nafaqat, viloyat markazlarida, balki tumanlarda ham investitsiya samaradorligining oshganini ko'rishimiz mumkin. Xorazm viloyatida 2012-2015 yilllarda kam quvvatli, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni sog'lomlashtirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 2012 yilda 109 ta korxona sog'lomlashtirilgan bo'lsa, 2015 yilga kelib esa 389 ta korxona sog'lomlashtirilgan. Bu bevosita qariyb 2721 ta aholi bandligini ta'minlashga yo'l ochib bergan, viloyat bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar 2012-yilda 74601,1 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda 12991,8 ni ko'rsatgan, ya'ni xorijiy investitsiya va kreditlarning birligi pasaygan.

III BOB. HUDUDLARDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA SAMARALI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Hududlar investitsion faolligini oshirish va boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi

Jahon tajribasining ko'rsatishicha ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy joylashtirish va mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ko'p mamlakatlarda turli yondashuvlar mavjud, biroq ular bir-biridan diyarli farq qilmaydi. Bu davlatlarda mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish maqsadlari quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

- rivojlanish jihatidan orqada qolayotgan mintaqalarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- markaziy hokimiyat organlarining katta qismini maxalliy boshqaruv tizimi zimmasiga yuklanishi;
- yirik shaharlarda sanoat ishlab chiqarishning to'planishini cheklash;
- yangi o'zlashtirilgan hududlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirish.

Mintaqaviy investitsiya siyosatini amalga oshirishning eng ommaviy uslublaridan biri bo'lib hududlarni rivojlantirish jamg'armalarini tashkil etish hisoblanadi. Masalan, 1975 yilda Evropa Ittifoqi qoshida hududiy muvofiqlashtirish jimg'armasi tashkil etilgan. Boshqa qator mamlakatlarda ham ayrim hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish maqsadida maxsus jamg'armalar (Italiyada davlat subsidiyasi hisobiga faoliyat olib boradigan va janubiy hududlar infratuzilmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Janubiy xazinasini"; Balgariyada ba'zi hududlar rivojlanishini jadallashtirish davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha jamg'arma, Vengriyada uchta maqsadli jamg'armani barlashtiruvchi hududlarni rivojlantirish markaziy jamg'armasi va boshqalar) tuzilgan

Ko'plab xorijiy mamlakatlar mintaqaviy siyosatining muhim xususiyati shundan iboratki ularda yirik ma'muriy-hududiy birliklar bo'lib guberniyalar, shtatlar, proventsiyalar emas, balki shaharlar va minitsipalitetlar hududiy muvofiqlashtirish makonlari hisoblanadi. Bularga, jumladan, Frantsiyada kam rivojlangan Janubiy-

G'arb mintaqasining 9 ta aglomeratsiyasi va 17 ta shahar, Ispaniyada 10 ta “rivojlanish markazlari” va 2 ta “sanoatni rag'batlantirish markazlari”, Yaponiyada 10 ta “sanoatning rivojlantirishning alohida riyonlari” va 6 ta “yangi sanoat shaharlari”, Italiyada 12 ta “sanoatni rivojlantirish areallari” va 26 ta “industrializatsiya yadrolari”, Germaniyada 300 ta “muhim aholi punktlari” va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.³²

Niderlandiya va Belgiyaning bu sohadagi tajribasi ayniqsa diqqatga sazovordir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki mintaqalardagi shaharlar va qishloqlar rivojlanishini rejalashtirish bo'yicha qonun birinchi marta 1915 yilda Belgiyada qabul qilingan.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida mintaqaviy investitsiya siyosati har bir hududning ichki imkoniyatlari va shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda turlicha qo'llanilishi mumkin.

Xitoy xalq respublikasining iqtisodiy rivojlanish modeli va xorijiy investitsiyalarni jalb etish tajribasi O'zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bu Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi xususiyatlar undagi demokratik vaziyatning o'ziga xosligi qishloq xo'jaligining iqtisodiyotidagi yuqori ahamiyati qayta ishlash sanoatining kam taraqqiy etganligi uning agrar-industrial mamlakat ekanligi o'ziga xos ijtimoiy shart-sharoitlar bilan tafsiflanadi.

Bu mamlakatning xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erishgan yutuqlari esa ko'p jihatdan uning mintaqalarida qulay investitsiya muxitining yaratilganligiga bog'liq. Xitoyda ishchi kuchi qiymatining arzonligi erdan foydalanish ishlab chiqarishga kiritilgan kapital uchun keng ko'lamli imtiyozlar ijtimoiy-maishiy infratuzilmaning rivojlanganligi va boshqa xolatlar bu mamlakatning so'ngi yillar ichida xorijiy investorlar uchun kapital kiritish ob'ektiga aylanishiga olib keldi.

Xitoyda shakillangan boj belgilash tartibi rivojlangan tashqi iqtisodiy aloqalar va valyuta qonunchiligi xorijiy investitsiyalar kirib kelishiga quloy imkoniyatlar yaratdi.

³² Механизм инвестиций: международный опыт в контексте Узбекистана // Экономическое обозрение. – Ташкент, 2007. - №7. – С.17.

Xitoyning mintaqalar iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati yillar davomida takomillashib kelmoqda. Bu siyosatning rivojlanish jarayonini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin.³³

Birinchi bosqich, o'z ichiga 1979-1982 yillarni qamrab oladi. Bu bosqichda Xitoyda "ochiq eshiklar" siyosati shakillandi. 1980 yillarning boshida mahalliy hukumatlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qarorlarni qabul qilish huquqi berildi. Bu davrda xorijiy investorlarga katta imtiyozlar berildi.

Ikkinchi bosqich, 1983-1991 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda xorijiy investitsiyalarni jalb etish siyosati takomillashtirildi. Mamlakatda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlarga asosan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga katta imtiyozlar berildi. Ular uchun daromad solig'ining stavkasi 33 foizgacha kamaytirildi. Baxolanki bu davrda mahalliy korxonalar uchun daromad solig'i 55 foizni tashkil qilir edi. Agar xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar o'z faoliyatini maxsus iqtisodiy zomnalarda amalga oshirayotgan bo'lsalar, ular uchun bu stavka yana xam kamroq miqdorda, ya'ni 15 foiz darajasida belgilangan edi.

Uchinchi bosqich, 1992 yilda hozirgi kunga qadar davom etmoqda. Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ular uchun yopiq bo'lgan moliya, sug'urta va boshqa sohalarga xam jal etilishi aynan 1992 yildan kegin boshlandi. Bundan samarali islohotlar natijasida Xitoy XXI asr boshida xorijiy investitsiyalar uchun eng jozibli mamlakatlardan biriga aylandi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida Yaponiyaning bu sohadagi tajribasi aloxida afzalliklarga ega. Aniq maqsadga yo'naltirilgan uzoq muddatli mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida Yaponiya tarixan qisqa davr ichida dunyodagi eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo'shildi.

Yaponiyaning mintaqaviy investitsiya siyosati er va tabiiy resurslarning cheklanganligini, kishilar faoliyatini tabiiy sharoitlarga moslashtirish sharuriyatini

³³ O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash yo'lida. Ekspress-prospekt. (Bekmurodov A.Sh., Berkinov B.B., Usmonov B.B., Hamidov O.M., G'afurov U.V. va Ne'matov I.U.) T.: Iqtisodiyot, 2009. – 5 b.

mamlakat turli hududlari aholisining turmush darajasidagi farqlarni kamaytirish talablarini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xar bir bosqichida mintaqaviy investitsiya dasturlarini ishlab chiqish, jamiyat va davlat oldida turgan maqsadlar va vazifalardan ularning miqyosi va amalga oshirish imkoniyatlarida kelib chiqib belgilanadi. Yaponiyada investitsiyalar va ishlab chiqarish quvvatlarini kam rivojlangan mintaqalarga jalb etishning tez moslashuvchan va qulay usullari qo'llaniladi.

Samarali investitsiya siyosati, avvalo tegishli ravishda xozirgi zamonning ichki va tashqi talablariga javob berishi kerak. Bu talablarning eng miqyosligi shubxasis globalizatsiyadir.

80-90 yillarda tovarlar va moliya bozorlari, mehnat bozorlari, rivojlanish institutlari, ishlab chiqarish va logistika tizimlari, savdo tizimlari (BST 1995 yil), intellektual mulkga huquqlarning (intelektual mulkni sotish jihatlari huquqi bo'yicha bitim TRIPS, 1995 yil) globallashuvi sodir bo'ldi.

Globalashuvning muhim natijasi bo'lib jahon iqtisodiyotidagi "tektanik" siljishlar xisoblanadi. Bu siljishlarning mohiyati Xitoy va Xindistonning bu jarayonlarga ta'sirining toboro oshib borishidir. Iqtisodiy o'sish yuqori sur'atlarining uzoq davr davom etishi xarbiy imkoniyatlarning kengayib borishi yuqori texnologiyalarni faol joriy qilib borish aholi sonining tezlik bilan o'sishi kabi omillar bu mamlakatlar iqtisodiy va siyosiy qudratining shiddat bilan oshib borishiga imkoniyat yaratmoqda.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning maqsadga muvofiq mexanizimini izlab topishda nisbatan qisqa davr mobaynida iqtisodiy rivojlanishda ulkan natijalarga erishgan rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar tajribasi alohida diqqatga sazovordir. Jahonning rivojlangan davlatlaridan farqli ravishda bu mamlakatlar tajribasi shunisi bilan qiziqish uyg'otdiki, avvalda rivojlanish darajasi bo'yicha O'zbekistonga yaqin bo'lgan holda investitsiya siyosatini amalga oshirishda katta natijalarga erishdilar.

Xitoyda investitsiya siyosati islohotlari va bozor mexanizimlari iqtisodiy

rivojlanishning turli bosqichlarida amalga oshirildi, iqtisodiyotning “qizib” ketishi bosqichida esa tartibga solishning ma’muriy metodlaridan ko’proq foydalanildi. Xitoy “iqtisodiy g’arabiyoti” bir qancha tayanch momentlarga asoslanadi: qishloq xo’jaligini isloh qilish, soliqlarni kamaytirish, davlat xarajatlarini qisqartirish, erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish (eksportni erkinlashtirish). Xitoy ma’muriyati hali jahon iqtisodiy amaliyotida kuzatilmagan soliqlarni - 1979 yilda YaIMga nisbatan 30,4 foizdan 1996 yilda 10,3 foizgacha kamaytirishni amalga oshirdilar. Bu salbiy makroiqtisodiy oqibatlarga olib kelmadi, chunki shu vaqtning o’zida barcha davlat xarajatlari 36,4 foizdan 13,1 foizgacha qisqarib bordi.³⁴

Xitoy investitsiya siyosatining vositalaridan biri bu investitsiyalarga soliqlardir. Bu vosita orqali hukumat kapital qurilishining me’yordan ortiq o’sibborishiga qarshi kurashdi. Biroq, agar korxonalar texnologikmodernizatsiyalash uchun ichki bozordan jihozlarni sotib oladigan bo’lsa ular yalpi foydaning 40 foiziga to’lanadigan soliqdan ozod bo’lish imtiyozidan foydalanish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

90-yillar oxirlarida, YaIMning o’sish sur’atlari tushib ketganida hukumat davlat g’aznachilik majburiyatlarini emissiya qilish orqali investitsiya faolligini rag’batlantirishga kirishdi. 1998-2002 yillar mobaynida mazkur vosita yordamida 80,5 mlrd. AQSh doll. jalb qilindi, ya’ni, irrigatsiya inshootlarini, avtomobil yo’llarini, aeroportlar, don saqlash omborlarini qurishga, o’rmonlarni yaratish va qisman davlat korxonalarini modernizatsiyalashga sarflanadi.

Xindiston investitsiya siyosati samaradorligi to’g’risida 4,1 ga teng bo’lgan global raqobatbardoshlikning yuqori indeksining (Egipt, Xorvatiya va Chexiya darajasi), va shuningdek so’nggi yillarda tayyor maxsulotlarning $\frac{3}{4}$ qismini tashkil etuvchi eksport tarkibining yaxshilanishi dalolat beradi.

Iqtisodiy va investitsiyaviy faollikning qator ko’rsatkichlari bo’yicha Xindiston dunyoning rivojlanayotgan davlatlari orasida etakchi o’rinlardan birini egallaydi. YaIMning o’rtacha o’sish sur’atlari 2000-2004 yillarda (Jahondagi rivojlanayotgan

³⁴ Механизм инвестиции: международный опыт в контексте Узбекистан.// Экономическое обозрение. – Ташкент, 2007. - №7. – С.15.

davlatlar bo'yicha 4,5 foiz o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan) 5,7 foizni, yalpi investitsiyalar esa 5,2 foizga nisbatan) 7,7 foizni tashkil etadi.

Dinamik iqtisodiy rivojlanishning omillaridan biri avvalo iqtisodiyotni rivojlantirishning ichki manbalarini faollashtirishga qaratilgan puxta o'ylangan investitsiya siyosati bo'lib xisoblanadi. Bu to'g'risida yalpi ichki jamg'armalarni (oxirgi 5 yil davomida YaIMga nisbatan 21,6 foiz), yalpi investitsiyalarni baholash (22,5 foiz) dalolat beradi, Bu jahondagi rivojlanayotgan davlatlar bo'yicha tegishli ravishda 18,6 va 20,9 foizni tashkil etadi.³⁵

Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini investitsiyalashda quyidagi ustuvor deb belgilandi: sanoatning xom ashyo ishlab chiqarmaydigan tarmoqlari; nobank moliya xizmatlari; oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish; infratuzilma-avtomogistrallarni, bandargoxlarni, elektroenergetika ob'ektlarini, ommaviy tezyurar transport tizimlarini qurish; fuqarolar aviatsiyasi, meditsina va farmotsevtika; mexmonxona biznesi va turizm; elektron jixozlar va dasturiy ta'minot; xususiy neftni qayta ishlash korxonalari; mineral xom ashyoni qidirish va qazib olish; maslahat xizmatlari va boshqalar.

Kichik tadbirkorlik uchun atsiyanerlik kapitaliga xorijiy investitsiyalar hajmi bo'yicha maxsus cheklovlar amal qiladi. Be sektor korxonalariga ustav kapitalida xorijiy ishtirok 24 foizgacha hajmda bo'lishiga ruxsat berilgan. Xorijliklar ishtiroki bu darajadan oshib ketgan taqdirda korxona mahsulotning 50 foizini majburiy eksport qilishini ko'zlovchi ishlab chiqarish litsenziyasini olish kerak bo'ladi.

Xindiston investitsiyalarini rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha 20 dan ortiq mamlakatlar bilan xalqaro va ikki tomonlama bitimlarni tuzgan. Bu bitimlar investitsiyalarning erkin harakat qilishi va qaytarilishi imkonini beradilar; milliylashtirishga; agar ular mamlakat milliy manfaatlariga zid kelmasa yo'l qo'ymaydilar.

Chili mintaqada va uning tashqarisida investitsiyalar uchun "platforma" sifatida o'zini namoyon etadi. "Platforma" g'oyasi Chilining Xorijiy investitsiyalar bo'yicha

³⁵ Механизм инвестиций: Международный опыт в контексте Узбекистана // Экономическое обозрение. – Ташкент, 2007. - №7. – С.16.

qo'mitasi tomonidan 2002 yilda taklif qilinib, shu paytdan boshlab hayotga tadbqiq etib kelmoqda.

Chili milliy iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha yutuqlarga erishgan mamlakat bo'lib hisoblanadi. Global raqobatbardoshlik indeksi bo'yicha (4,9) 2006 yilda mamlakat jahonning rivojlanayotgan davlatlari orasida (Malayziyadan yuqori va Isroildan biroz pastroq) yuqori o'rinni egalladi va barcha Lotin Amerikasi mamlakatlaridan o'zib ketadi.

Ijobiy xalqaro reytinglar, investitsiyaviy muhitning qulayligi darajasining yuqori bahosi, faol tashqi siyosat va hukumatning xo'jalik hayotini erkinlashtirish yo'lini tanlash tashqi investorlarda ijobiy fikr uyg'atmoqda.

Xorijiy investorlarni tartibga solishning asosi bo'lib 1947 yildan beri amalga qilib kelayotgan xorijiy investorlar to'g'risidagi Dekret-qonun bo'lib hisoblanadi. U xorijiy kapitalni himoya qilish kafolatlari bo'yicha dunyoda eeng takomillashgan xujjatlardan biridir. Dekret-qonunga asosan investorlarga milliy rejim taqdim etilgan, qo'lga kiritilgan foydani repatriatsiya qilish muddatlari 2000 yil mobaynidan boshlab esa asosiy kapital bo'yicha cheklovlar mavjud emas. Xorijiy investorlarning ko'pchiligi ushbu xujjat me'yorlari asosida ishlashni afzal ko'radilar: 1974-2004 yillarda uning doirasida Chilida 80 foizdan ortiq investitsiyalar amalga oshirildi. Dekret-qonun talablariga binoan har qanday xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar, va shuningdek chet elda yashovchi chililik fuqarolar mamlakat hududida investitsiyalarni amalga oshirish huquqiga egalar.

Lotin Amerikasining ko'pgina mamlakatlaridan farqli ravishda Chilida xorijiy va xususiy investitsiyalash uchun barcha sohalar taqdim etilgan. Faqatgina havo transporti va ommaviy axborot vositalari bundan mustasnodir.

Taylandda qulayroq investitsiya muhitini yaratish uchun iqtisodiyotni erkinlashtirish (bank sektori va tashqi savdo rejimiga e'tibor qaratish), makroiqtisodiy barqarorlikni mustaxkamlash, investitsiya ustuvorliklari, xususiylashtirish sohasida shaffoflikni ta'minlash, imtiyozlar va preferentsiyalar berish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda ko'rilgan choralar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sohalari kengaytirish, investitsiyaviy tartiblarni, soliq undirish faktlari va usullarini, turli rag'batlar va proferentsiyalarni taqdim etish jarayonlarini soddalashtirish imkonini beradi. Bu bilan bir vaqtda xorijiy investorlar mulkini himoya qilishni kafolatlovchi, olinadigan foydani repatriatsiya qilish, mamlakatning velay imidjini yaratuvchi qonuniy me'yorlarni takomillashtirish bo'yicha ishlar (ko'rgazmalar tashkil qilish, investorlar va jurnalistlarni taklif qilish, investorlar uchun maxsus nashrlar) milliy kengashning investitsiyalar bo'yicha xorijiy ofislarining ochilishi milliy ustuvorlikning ommaviy muhokama etilishi va e'lon qilinishi. Masalan, 2002 yilda ko'rgazmalar e'tiborini hozirgi zamon agrotexnika texnologiyalari, qiyimlar, zargarlik buyumlari, avtomobillar, yangi turistik texnologiyalarga qaratdilar.

Natijada, hozirgi vaqtda Tailand ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan iqtisodiyotni erkinlashtirish darajasi bo'yicha ilgari ketdi (iqtisodiy erkinlik indeksi 2000-2004 yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar kategoriyasi uchun 57,5 foizga nisbatan 66,6 foizni, makroiqtisodiy barqarorlik indeksi – YaIM deflyatori 8,2 foizga nisbatan 1,8 foizni, iqtisodiyotni modernizatsiyalash indeksi 48,6 foizga nisbatan 97,7 foizni tashkil etadi).³⁶

Tailand misli bank sektorining investitsiya siyosati samaradorligini oshirishdagi muhim ahamiyatini ta'kidlaydi. Xattoki rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida bank sektori bir vaqtning o'zida aholi va tadbirkorlik sohasi daromadlarining bir qismini jalb qilish, bu bilan makroiqtisodiy barqarorlik darajasini mustahkamlash va investitsiyamuhitini yaxshilash, iqtisodiy faol aholi qatlamlarini va xususiy biznesni jalb qilish orqali jamg'armalarning yuqori darajasini ta'minlashi mumkin.

Turli mamlakatlar (Xitoy, Xindiston, Chili) investitsiya siyosatidagi farqlar va o'ziga xos xususiyatlarga qaramay bu davlatlarning investitsiya strategiyasi va mexanizmlarida umumiy tomonlar majud. Bular quyidagilardir:

³⁶ Механизм инвестиций: международный опыт в контексте Узбекистана // Экономическое обозрение. – Ташкент, 2007ю - №7. – С.17.

1. Samarali investitsiya siyosatini tashkil qilishda (ayniqsa uning shakillanishi bosqichlarida) davlatning yuqori roli. Bunda davlatning funktsiyalari faqat qulay investitsiya muhitini shakillantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish, zarur me'yoriy-huquqiy bazani yaratish va unga rioya qilish monitoringini amalga oshirish bilan cheklanmaydi. Bu yo'nalishda inson va ijtimoiy kapitalni rivojlantirish, davlat institutlari instituttsional salohiyatini mustahkamlash, iqtisodiyotni yangi innovatsion sektorlarini rivojlantirishga investitsiyalarni ko'paytirish singari masalalarni hal qilish muhim bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, erkinlashtirish jarayonlarining chuqurlashib borishi bilan investitsiyalash jarayonlarini davlat tomondan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish miqyoslari qisqarib boradi, bilvosita vositalar orqali investitsiya oqimlarini rag'batlantirish funktsiyalari esa muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi.

2. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini rag'batlantiruvchi qulay va mustahkam investitsiya muhiti. Bu holat jamg'armalar darajasini YaIMga nisbatan 20 foizdan kam bo'lmasligini, va shuningdek investitsiyalar o'sish sur'atlarini YaIM o'sish sur'atlaridan yuqori (2-4 punk) bo'lishini ta'minlaydi. Oxirgisi ustun darajada xususiy investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladi. Bunga xususiy sektorga katta hajmdagi kreditlarning ajratilishi (Tailand, Xindiston) ijtimoiy iqtisodiy muammolarini hal qilishda erkin bozor kuchlari bilan davlatning faol rolining uyg'unlashuvi (inflyatsiyaning past darajasini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikka qarshi kurashish va h.k.

3. Bank sektori va moliya bozorining barqaror rivojlanishi. Jahonning ko'pgina raqobatbardosh rivojlanayotgan mamlakatlarida monetizatsiya darajasi 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. Faqat shunday holdagina aholi va tadbirkorlarning bo'sh mablag'larini ishga solish, investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, faol inflyatsiyaga qarshi siyosatni olib borish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

4. Investitsiya siyosatining tizimliliigi va bir butunligi. Ma'lumki, investitsiya siyosati mamlakat inqtisodiy rivojlanish strategiyasining asosiy tarkibiy qisimlaridan biri bo'lib hisoblanadi. (masalan, Xindistonning yangi sanoat siyosati, Tailandning

sanoat siyosati, Chilining eksport salohiyatini rivojlantirish siyosati) va umummilliy manfaatlarga asoslanadi. Jumladan, Xitoy investitsiya siyosati tsikllarga qarshi tartibga solish, barqaror rivojlanishni ta'minlash, erishilgan yuqori o'sish sur'atlarini saqlab turishning (Xitoy iqtisodiyotining tsiklik rivojlanishi xususiyatini hisobga olgan holda) faol vositasi bo'lib hisoblanadi.

5. Investitsiya siyosatga mas'ul bo'lgan davlat institutlari faoliyati sifatini oshirish. Bu nodavlat mustaqil eksportlarni (taniqli olimlar va obroli biznesmenlar) davlat resurslarini taqsimlovchi boshqaruv kengashlari va tuzilmalar tarkibiga jalb qilish orqali amalga oshirilgan. Mazkur resurslar u yoki bu investitsiya loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sifatida xususiy investitsion-innovatsion fondlarning boshlang'ich kapitalini shakillantirish uchun taqdim etilgan. Ana shu maqsadda davlat hukumat bilan shartnomabo'yicha ishlovchi xususiy kam foyda oluvchi korporatsiyalar xizmatidan foydalangan. Bu davlatlarda investitsiya imtiyozlari va preferentsiyalarini berish ishlarining shaffofligi muhim rol o'ynaydi.

6. Yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga kapital oqimlarini yo'naltirish. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar bunda rivojlangan mamlakatlar bilan ular shrtasidagi iqtisodiy rivojlanish sur'atlaridagi frqni tezroq bartaraf etish imkonini beruvchi rivojlanishning "quvib etish" strategiyalaridan foydalanganlar. Bunda asosiy mexanizm bo'lib xususiy-davlat hamkorligi, davlat va biznes o'rtasidagi riskni taqsimlash, marketing tadqiqotlariga ketadigan xarajatlarni davlat tomonidan birlashtirib moliyalashtirish, personalni o'qitish, yangi mahsulotni sertifikatlashga ko'maklashish hisoblanadi.

7. Inson va ijtimoiy kapitalni oshirishni investitsiyalashga o'ziga xos ustuvorlik berish. Fan sig'imkorligiga (naukaemkoy) ega bo'lgan iqtisodiyotni tezkorlik bilan barpo etish sharoitida raqobatbardoshlikning o'sishini ta'minlash zaruriyati rivojlanayotgan mamlakatlarning inson va ijtimoiy kapitalga keng miqyosdagi investitsiyalarni jalb qilish ko'rinishidagi o'ziga xos ustuvorligini keltirib chiqaradi. Ta'lim sohasiga e'tibor, rivojlangan mamlakatlarga "aqlarning oqib o'tishi"ni kamaytirish bo'yicha ko'rilgan jiddiy choralar rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish istiqbollarini baholashning eng muhim mezoniga aylandi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishda nafaqat investitsion rag'batlar, balki investitsion promounting strategiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan 50 ta mamlakatlar tajribalarga asoslangan tadqiqotlarning dalolat berishicha investitsion promountingga sarflangan har bir dollar milliy iqtisodiyotga to'rt dollarlik samara berishi mumkin. Eng samarali bo'lib u yoki bu sektorga aniq yo'naltirilgan, muayyan potentsial investorga mo'ljallab ishlab chiqilgan va faol marketing strategiyasiga ega bo'lgan investitsiyalar hisoblanadi.

3.2. Xududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy usullarini joriy qilish

O'zbekistonda xorijiy investitsiyali korxonalarning bir maromda faoliyat yuritishi va investorlarning xuquqlari ximoya qilinishi uchun me'yoriy xujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni ximoya qilish choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari xamda Soliq kodeksi chet el sarmoyalarini amalga oshirishning xuquqiy asoslari va tartibini belgilab beradi. Sir emaski, o'z mablag'ini biror mamlakat iqtisodiyotiga kiritmoqchi bo'lgan chet ellik sarmoyador birinchi navbatda o'zi uchun yaratilgan imtiyoz va engilliklarni bilishni istaydi. Shu o'rinda "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunga muvofiq chet ellik investorlar o'z ishlab chiqarish extiyohlari uchun, shuningdek chet ellik investorlarning va chet ellik investorlar bilan tuzilgan mexnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolarining shaxsiy extiyohlari uchun olib kiriladigan mol-mulkdan boj to'lovi olinmasligini aytish mumkin.

"Chet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida "Agar O'zbekiston Respublikasining keyingi qonun xujjatlari investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, unda chet ellik investorlarga nisbatan investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun xujjatlari investitsiyalash paytidan boshlab o'n yil mobaynida

qo'llaniladi. Chet ellik investor o'z xoxishiga ko'ra yangi qonun xujjatlarining investitsiyalash shart-sharoitlarini yaxshilaydigan qoidalarini qo'llash xuquqiga egadir",³⁷ deyiladi. Demak, me'yoriy xujjatlar yurtimizga kirib kelayotgan xorijiy investorlarni xar tomonlama qo'llab-quvvatlash, unga muqobil sharoitlarni yaratish nuqtai nazaridan ishlab chiqilganini aloxida ta'kidlamoq lozim.

"Shu borada faqat otgan yilning O'zida umumiy qiymati 1 milliard 600 million dollardan ortiq bo'lgan kapital qo'yilmalar o'zlashtirilib, 205 ta yirik investitsion loyiha qurib bitkazildi".³⁸

Prezidentimizning mamlakat iqtisodiyoti rivoji uchun o'ta muxim bo'lgan "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3594-son Farmoni ishlab chiqarish soxalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyani jalb etish, yurtimizning eksport saloxiyatini yanada yuksaltirishda muxim dasturilamal bo'lib xizmat qilish bilan bir qatorda, iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida qo'yilgan yana bir muxim qadamdir.

Xorijiy investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri jalb etishga doir ushbu Farmon mamlakatda investitsiya muxitini yanada yaxshilash, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik jixatdan qayta jihozlash va rekonstruktsiya qilish, ortiqcha ishchi kuchi bo'lgan mintaqalarda yangi ish joylarini yaratish dasturini amalga oshirishga xamda xorijiy investorlar uchun ishonchli xuquqiy ximoya va kafolatlarni ta'minlash maqsadlariga qaratilgan. Shu o'rinda Farmonda xorijlik ishbilarmonlarni soliq bilan rag'batlantirishga xam aloxida e'tibor qaratilgan. Jumladan, unga muvofiq 2005 yilning 1 iyulidan boshlab, to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyat turlari bo'yicha, jumladan daromad (foyda) solig'i, mol-mulk

³⁷ O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar kafolatlari va ularni ximoya qilish choralari tqg'risida"gi Qonuni, T. : O'zbekiston ,

³⁸"Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yil mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga ag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2013 yil 19- yanvar.

solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va xududlarni obodonlashtirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi yoki yagona soliq xamda Respublika yo'l jamg'armasiga ajratmalar to'lashdan ozod qilindi. Bunda xorijiy investitsiyalar xajmi 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha bo'lganda 3 yil muddatga, 3 milliondan ortiq AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha 5 yil muddatga, 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda 7 yil muddatga yuqorida ko'rsatilgan soliqlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanadi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida chet el investitsiyalarini o'z milliy iqtisodiyotiga jalb etishning raqobat shakli yildan-yilga kuchayib bormoqda. Shu bois, chet ellik investorlarga yaratilgan qulaylik qaysi davlatda ustun darajada bo'lsa, ya'ni foyda olish extimoli kattaroq bo'lsa, tabiiyki, ularning aynan o'sha davlat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga qiziqishi ortadi. Bu esa, bozor iqtisodiyotining nisbiy samaradorlik qonuniga mos keluvchi echim xisoblanadi, ya'ni qaerda samara (foyda) olish imkoniyati nisbatan yuqori bo'lsa, tadbirkorlar o'sha erdagi bozorga ko'proq intiladi. Shuningdek, bugun O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar ichida eng yuqori investitsiya muxiti yaratgan mamlakatlardan biriga aylandi. Bu, shubxasiz, iqtisodiyotimizga to'g'ridan-to'g'ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini yanada kuchaytiradi. Farmonning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, u xususiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan. Farmonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni xar tomonlama qulay, ortiqcha ishchi kuchiga ega bo'lgan bir qator viloyatlarning qishloq axoli punktlarida joylashtirilishining belgilanishi mamlakatimizda bandlik masalalarini ijobiy xal etishga qaratilgan. Xuquqiy kafolatlarning aniq-oddiyligi sarmoyadorlarning investitsiya kiritish xaqida qaror qabul qilishini tezlashtirish bilan birga, ularga mavjud xatarlarni xam baxolash imkoniyatini yaratadi. Davlatimiz iqtisodiy siyosati ko'proq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishga va uni rag'batlantirishga qaratilganligi bois, turli shakldagi investitsiyalar oqimi yildan-yilga oshib bormoqda. O'z navbatida, respublika mintaqalaridagi boy mineral-xom ashyo resurslari, etarli miqdordagi malakali ishchi kuchlari, sog'lom

atrof muxit, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik kabi omillar shubxasiz, xorijiy investitsiyalar oqimining yanada ko'payishiga, respublika mintaqalarida faoliyat yuritadigan korxonalar rivojiga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish kurilish uchun muljallangan jami investitsiyalarning kariyb turtdan uch kismini Yangi ishlab chikarish korxonalarini barpo etish va modernizatsiya kilish uchun yunaltirishga to'g'ri kelmokda ”³⁹ deb ta'kidlaydilar Prezidentimiz I.A. Karimov.

Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi chora – tadbirlarni qayd etish mumkin:

- aholi bo'sh pul mablag'larini investitsion jarayonlarga jalb qilish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish, turli qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish;

- investitsion loyihalarni sifatini oshirish maqsadida doimiy ravishda investitsion loyihalar ko'rgazmasini tashkil qilish.

- iqtisodiyotimizda TTXIlardan oqilona va samarali foydalanish bo'yicha quyidagi takliflarni berish mumkin:

- investitsiyalarning hududiy bir yoqlamalik xususiyatini oldini olish maqsadida, viloyatlarni rivojlanganlik darajasi bo'yicha uch guruhga bo'lib, sust rivojlangan regionlarga investorlar uchun ko'proq manfaatdorlik, moyillik rag'batlarini yaratish.

Investitsiya muhitini yaxshilashda quyidagi chora – tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvoqdir:

- 1.Xorijiy investitsiyalrni jalb qilish va tartibga solishda qonun va me'yoriy xujjatlarni takomillashtirish;

2. Mamlakatdagi va korxonalar daoajasidagi kadrlar salohiyatini oshirish;


3. Ichki bozorda o'z faoliyatini olib borayotgan milliy korxonalarni aniq axborot bilan ta'minlanishini yaxshilash;

³⁹«Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish». O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yil mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga ag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2013 yil 19- yanvar.

4. Yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish va faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlarni legallashtirish;

5. Mamlakatdagi rivojlanish darajasi pastroq bo'lgan mintaqalarga moliyaviy mablag'lar ajratish;

6. O'zbekiston Respublikasida Investitsion loyihalarni baholash maqsadida investitsion agentliklarni tashkil etish.



5-rasm. O'zbekiston Respublikasining tuzilmaviy investitsiya siyosati tarkibi⁴⁰

⁴⁰ Talaba tomonidan shakllantirildi.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etishga manfaatdor har qanday davlat o'zining investitsiya siyosatini takomillashtirib boradi. Bu siyosat xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o'ziga xos yo'nalishini, shuningdek, ularni jalb etishni rag'batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi. O'zbekistonda investitsiya siyosatini samarali tashkil etishda davlatning tuzilmaviy investitsiya siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Uni quyidagi rasm orqali ifodalaymiz.

Bugungi kunda eksportni rivojlantirish bu investitsion faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan davlatning umumiy iqtisodiy siyosatining ajralmas bir qismidir.

Mamlakatimizga bu tarzda sarmoya oqib kelayotgani esa xorijiy investorlar, ya'ni chet ellik sheriklarimiz respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi demokratik va bozor islohotlarining to'g'riligi xamda samaradorligini tan olgani, ularning biz bilan xamkorlik qilishga tayyor ekanining yana bir tasdig'idir.

Investitsiya siyosatini amalga oshirish vositalari va usullari investitsiyalarning turli yo'nalishlarda sarflanishi va joylashtirilishini rag'batlantiradi.

Yurtboshimiz O'zbekistonning eksport imkoniyatini keskin oshirish masalasiga yondashar ekan, buning uchun dastavval, qimmatli xom ashyoni qayta ishlash asosida tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalarni rivojlantirish, chet ellik sheriklar bilan zamonaviy ixcham korxonalar tashkil etish, ularni birinchi navbatda mehnat resurslari va xom ashyo manbalariga, avvalambor, qishloq joylariga yaqinroq joylashtirish zarurligini uqtirib o'tadi.

Ayni vaqtda, investitsiya siyosatining eng ustuvor yo'nalishi, birinchidan, respublikaning eksport imkoniyatini oshirish, ikkinchidan, iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, uchinchidan, investitsiyalarni moliyalashning nomarkazlashgan manbalari hajmini oshirishga yo'naltirilgan. Bir vaqtning o'zida mamlakatimizning jahon maydonidagi raqobatdoshligini, eng avvalo, puxta ishlab chiqilgan va oqilona yuritilayotgan investitsiya siyosati orqaligina ta'minlash mumkin.

Xorijiy investorlarni manfaatli jalb etishda ularning sarmoyalarini himoyalangan kafolatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda ular investitsiyani milliy iqtisodiyotimizga kiritishda iqtisodiy jihatdan hadiksiraydilar. Shu bois, chet ellik investorlarning o'z investitsiyalarini ixtiyoriy ravishda sug'urta qilish huquqlarining kafolatligi ularning mulklarini ekspropriatsiya qilishdan va boshqa xatarlardan muhofaza qilinishini ta'minlaydi. Xorijiy investorlar o'z faoliyatlari natijasida olgan foydalarini hech bir cheklovlersiz chet elga o'tkazishlari ham, ularni respublika hududida qayta investitsiyalashlari, yohud ulardan o'z istaklariga ko'ra boshqa maqsadlarda foydalanishlari ham kafolatlanadi. Ana shunday qulay muhit tufayli ularning faoliyatlari rivojlanib bormoqda.

O'zbekistonning dunyodagi mavqeining mustahkamlanib borishi, chet el investitsiyalarini jalb etish uchun yaxshi sharoitlarning yaratilishi natijasida chet el investitsiyalari ishtirokidagi qo'shma korxonalar soni ko'payib bormoqda. Ammo, O'zbekistonda chet el investitsiyalarini mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilishda bir qancha muammolar mavjud. Xususan, xorijiy investitsiyalarni joylashishida hududiy nomutanosiblik mavjud. Natijada chet el investorlarini hududlar miqyosida jalb etish muvozanatga solinmaganligi saqlanib turibdi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi hududlarda qulay investitsiya muhitini, bir qator makroiqtisodiy omillarini keskin darajada kuchaytirilishini taqozo etadi. Bu sohada ro'y berayotgan jarayonlar voqealarning shiddatli almashinuvi bilan izohlanadi. Hududlarning iqtisodiy o'sishini va qulay investitsion muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jadallashtirishda hal qiluvchi rolni ishlab chiqarish investitsiyalari o'ynashi kerak.

Faqat investitsiyalar bazasidagina asosiy kapitalni yangilash hamda shu asosda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va sifatini yaxshilash evaziga mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Biroq bu hozirgi yuksak darajada integrasiyalashgan xo'jalik sharoitida davlatning muvofiqlashtiruvchi roli

obektiv ravishda ancha salmoqli bo'lib qolmoqda. SHu munosabat bilan investitsiya muhitni yaxshilashda barcha hududlarga olib kelayotgan investorlar faoliyatiga davlatning faol aralashuviga yaqin yillar mobaynidagi makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida qarash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa strategik maqsad – hududlar iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun amalga oshirilmog'i, bu raqobatbardoshlik va hudud iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi mezonlariga javob berishi lozim. Strategik maqsadga erishish qulay investitsion muhitni yaratish asosida taminlanishi mumkinki, investitsiya jarayonlarini davlat yo'li bilan makro boshqarib turish bunday rejalab turishning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Hududlardagi investitsion muhitini shakllantirishning hozirgi bosqichi iqtisodiy o'sish yo'liga o'tib olish bilan izohlanadi. Bunday o'sish alohida investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadiki, u taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga, investitsiya resurslari va chet el investitsiyalarini jalb qilish sifatida mablag'lardan foydalanishning mavjud imkoniyatlariga tayanishi lozim bo'ladi. Chet el investitsiyalarini jalb etmay turib, hozirgi zamon talablariga javob beradigan ishlab chiqarishning tashkil etilishini ta'minlash mumkin emas.

Hududlar investitsiya jarayonlarini izga solib turishning iqtisodiy asoslarini yaratish, ishlab chiqilgan siyosatni amalga oshirishga imkon tug'diruvchi shart-sharoitni ta'minlash investitsiya siyosatining muhim vazifalaridan biri bo'lib, hududlarda qulay investitsion muhit yaratishga aynan shu yo'l bilan erishish mumkin.

XULOSA

Amalga oshirilgan bitiruv malakaviy ish natijalariga asoslangan holda xududlarda investitsion faollikni oshirish va samarali boshqarish yuzasidan quyidagi xulosalar kelindi:

1. Investitsiyalar – mulkchilikning barcha ko'rinishlaridagi moddiy va nomoddiy boyliklarni foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida davlat tomonidan muomalaga kiritishdir. Xududlarga investitsiyalar kiritilishi mulkdorlar tomonidan yuqori darajada daromad olish va samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik va ishbilarmonlik faoliyatlariga safarbar etadigan barcha turdagi moliyaviy, mulkiy va intellektual boyliklari tushuniladi.

2. Investitsiyalarni hudud iqtisodiyotga keng ko'lamda jalb qilish zarurati quyidagi holatlardan kelib chiqadi: xududdagi mavjud asosiy fondlarning jismoniy va ma'naviy eskirganligi, sanoat tarmog'ida moddiy texnika bazasining o'ta pastligi; hudud milliy daromadida jamg'arish bilan ist'emol o'rtasidagi nisbatning iste'mol tomonga ko'plab sarflanayotgani va jamg'arishning investitsiya manbai sifatida kamayib borayotganligi; ko'plab qayta ishlovchi sanoatlar korxonalarni qurish imkoniyati mavjudligi; eksport salohiyatining nisbatan pastligi, eksport tarkibida xom ashyoning asosiy salmoqni tashkil etishi, kelgusida ilg'or zamonaviy texnologiyani jalb qilish orqali tayyor mahsulotlar ishlab chiqib, eksport hajmini va tarkibini o'zgartirish zarurati kabilar.

3. Tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida va Urganch shaxriga investitsiyalar juda sekinlik bilan qo'yilmoqda, bularning sabablari: telekommunikatsiya aloqalarining rivojlanmaganligi; milliy pul birligining xorijiy valyutaga nisbatan kursining o'zgaruvchanligi; qimmatli qog'ozlar bozorida ikkilamchi bozorining to'liq shakllanmaganligi, valyutani konvertatsiyalashdagi muammolar, soliq tizimining takomillashmaganligi; yirik hajmdagi kapitalni turli risklardan kafolatlovchi investitsiya banklarining yo'qligi.

4. Xorazm viloyatida investitsiya muhitini yanada yaxshilash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini hisobga olgan holda soliq tizimini ilmiy asoslangan holda takomillashtirish; ma'muriy buyruqbozlik holatlariga chek qo'yish; viloyatdagi

aktsiyadorlik jamiyatlarining aktsiyasini nufuzini va uning likvidliligini oshirish, viloyatga va shaharga xorijiy investorlarni ularga jalb eta bilish, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish.

5. Chet ellar tajribasidan va viloyatdagi mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, hududlarida erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishni davom ettirish, uni rag'batlantirishga qaratilgan maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish kerak.

6. Investitsiya muhiti deganda, mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma'lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tashkiliy-huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. U muayyan hududga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan shart-sharoitlarning mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini anglatadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hudud iqtisodiyotda investitsion faollikni oshirish va uni boshqarishda quyidagi taklif va tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish sharoitida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida investitsiya muhiti barqarorligini va uning jozibadorligini ta'minlash zarur.

2. Hudud iqtisodiyotida investitsion faollikni oshirishda va uni boshqarishda quyidagi tadbirlar yordam beradi: viloyatga va shaharga xorijiy investitsiyalarning oqib kelishini rag'batlantirish asosida ularni yangi loyihalarga jalb etish va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirish sohasida qo'shma korxonalar tashkil qilish; O'zbekiston iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarning barcha shakllarini faol jalb qilishda mamlakatning hududiy va tarmoq tizimini takomillashtirish nuqtai nazardan investitsiyalashga ta'sir etuvchi omillarni muvofiqlashtirgan holda qulay investitsiya muhitini yaratish; chet el investitsiyasini jalb etuvchi hamda shu asosda tovar eksport qilishni ko'paytiruvchi korxonalar uchun imtiyozlarni yanada kengaytirish; investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish ishlab chiqarish texnologiyalarini, global bilimlarni olish, soliqlarni tartibga solish rolini takomillashtirish,

3. Hududda xorijiy sarmoyadorlarni qiziqtiruvchi sohalar, ob'ektlarni aniqlash va ular to'g'risidagi ma'lumotlar majmuini shakllantirish, biznes-rejalar va ularni iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish va iqtisodiy jihatdan manfaatli bo'lgan sohalarga chet el kapitalini jalb qilish zarur. Eksportda qayta ishlangan, tayyor mahsulotlar salmog'ini ko'paytirish, ayniqsa, paxta va qishloq xo'jaligi mahsulotlarni qayta ishlashni oshirish va bu sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, vazirlar Maxkamasi qarorlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va risolalari

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014 y.

2.O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi qonuni 1995 yil 21 dekabr.

3.O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonuni 1996 yil 25 aprel.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti «Aksioner tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni 1998 yil 2 oktyabr.

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, 2000 yil 21 aprel.

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tijorat banklarining kapitallashtirish darajasini oshirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2006 yil 19 dekabrda PF-3831 sonli Qarori.

7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrda “2011 — 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi PQ-1438 sonli Qarori.

8.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Respublika bank tizimi boshqaruvi tuzilmasini va uning amaliy faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1994 yil 3 mayda 234-sonli qarori.

9.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki “Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida”gi 421-sonli Nizom 1998 yil 2 dekabr.

10.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki “Tijorat banklari kapitalining etarililigi qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi Nizom, №420, 2000 yil 26 mart.

11.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "Tijorat banklari tomonidan Markaziy bankka majburiy zaxiralarni deponentlash tartibi to'g'risida"gi nizom 2000 yil 20 aprel.

12.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga qayta moliyalash kreditlarini berish tartibi to'g'risidagi Nizom, 2011 yil 22 yanvar.ш

13.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir / I.A. Karimov. – T.: O'zbekiston, 2010.-80 b.

14.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A. Karimov. – T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.

15.Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

16. Каримов И.А. “2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир”. 19.01.2015й. <http://xs.uz>– Халқ сўзи газетаси сайти.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

17. O'zbekiston – iqtisodiyotni modernizasiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo'lida. (Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V.) T.: Iqtisodiyot, 2008. – 126 b. (elektron versiyasi bilan).

18. Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari (o'zbek va rus tillarida). Ilmiy-ommabop qo'llanma. (Bekmurodov A.Sh., Gimranova O.B., Shamshieva N.N.) T.: Iqtisodiyot, 2009. – 92 b. (elektron versiyasi bilan).

19. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizasiyalash yo'lida. Ekspress-prospekt. (Bekmurodov A.Sh., Berkinov B.B., Usmonov B.B., Hamidov

O.M., G'afurov U.V. va Ne'matov I.U.) T.: Iqtisodiyot, 2009. – 5 b. (elektron versiyasi bilan).

20. Боди, Зви, Кейн, Алекс, Маркус, Алан. Принципы инвестиций, 4-е издание.: Пер. с англ. "Вильямс", 2008. — 984 с .

21. Дамодаран А. Инвестиционная оценка: Инструменты и методы оценки любых активов:Пер.с англ.- 4-е изд.-М.:Альпина Бизнес Букс,2007. - 1340 с.

22.Инвестиции: учеб. /А.Ю. Андрианов, СВ. Валдайцев, П.В. Воробьев и др. -2-е изд., перераб. и доп. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2008. - 584 с.

23.Шарп У., Александер Г., Бэйли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. - М. ИНФРА-М, 2007. -1028 с.

24.Внешеэкономическая деятельность: Учебник. /[Б. М. Смитиенко, В. К. Поспелов.С. В. Карпова и др.]; под ред. Б. М. Смитиенко, В. К. Поспелова. - 4-е изд., перераб. и доп.- М.: «Академия», 2007. - 304 с.

25. Расулов Н.Н.Стимулирование привлечения иностранных инвестиции в экономику Узбекистана.-Т.: «ФАН», 2003.-165 с.

26. Игошин Н.В. Инвестиции, организация, управление, финансирование: Учебник / -3-е изд.-М.: «ЮНИТИ : ДАНА», 2005.- 448 с.

27.Дегтярёв О.И. Внешеэкономическая деятельность: Учеб. пособие. /Дегтярёва О.И., Полянова Т.Н., Саркисов С.В. –М.: Дело, 2005. – 325 с.

28.Диденко Н. И. Основы внешнеэкономической деятельности в РФ. 2-е изд. –СПб.: Питер, 2004. – 286 с.

29.Механизм инвестиций: международный опыт в контексте Узбекистана // Экономическое обозрение. – Ташкент, 2007ю - №7. – С.17.

30.O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 1-qism. Bekmurodov A., Boltabaev M., G'oyibnazarov B., Amanbaev M., Toshxo'jaev M. Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlar. – T.: TDIU, 2005.

31.O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 2-qism. Bekmurodov A., Hakimov R., Safarov B., Zaxidov G. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va fermerlik harakati. – T.: TDIU, 2005.

32.O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 3–qism. Bekmurodov A.SH., Sattorov S., To'raev J., Soliev K., Ro'ziev S. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji – davr talabi. - T.: TDIU, 2005.

33.O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 4-qism Bekmurodov A., Tojiev R., Qurbonov X., Alimardonov M. Moliya va bank tizimidagi islohotlar samarasi. – T.: TDIU, 2005.

34.O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 5-qism. Bekmurodov A., Tairov SH., Maxmudov E., Isakov M., To'raev N. Tashqi iqtisodiy siyosat: savdo va investitsiyalar oqimlari. – T.: TDIU, 2005.

35. “Qo'shma korxonalarni tashkil etishga investitsiyalarni kiritishning ustuvor yo'nalishlari va vazifalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: TDIU, 2008.

36. Шапиро В.Д. и др. Управление проектами. СПб.: "Два Три", 2006. - 17 с..

37. Jo'raev A.S, Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B. «Investitsiya loyihalari tahlili» Toshkent «Sharq»2007-52b

III. Internet saytlari:

- www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti
- www.urganchshahar.uz - Urganch shahar hokimligi sayti
- www.uzreport.uz - Uzreport axborot agentligi
- www.finance.uz - Moliyaviy axborot agentligi
- www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti
- www.kapital.uz Kapital qo'yilmalar haqida
- www.feiz.uz

ILOVA

Xorazm viloyatining 2014-2015 yillarda kollejlari, maktablar, sog'liqni saqlash muassasalari va boshqa ob'ektlar yangi qurilishi, rekonstruktsiya va ta'mirlash to'g'risida⁴¹

tr	Ob'ektlar nomi	2014 yilda		2015 yil yanvar-dekabr oylarida	
		soni	ishga tushirilgan asosiy fondlar (investitsiyalar*), mln so'm	soni	ishga tushirilgan asosiy fondlar (investitsiyalar*), mln so'm
1.	Maktablar jami	5	5824,7	8	10549,1
	yangi qurilgan			1	3257,3
	rekonstruktsiya qilingan	5	5824,7	7	7291,8
	ta'mirlangan*	16	6479	14	8956,9
2.	Kollej va litseylar jami	1	2012	4	13294,5
	yangi qurilgan	1	2012	1	5489,6
	rekonstruktsiya qilingan			3	7804,9
	ta'mirlangan*			6	4486,8
3.	Bolalar sporti ob'ektlari jami	2	2322,7	13	8639
	yangi qurilgan	2	2323	5	1999
	rekonstruktsiya qilingan			2	2153,2
	ta'mirlangan*			6	4486,8
4.	Kasalxonalar (yotok urni)	760	17016,1	545	11529,6
	yangi qurilgan				
	rekonstruktsiya qilingan	760	17016,1	545	11529,6
	ta'mirlangan*				
5.	Poliklinikalar, QVPni qo'shgan holda (smenada qatnov)	1960	18660,2	3	3464,6

⁴¹ Xorazm viloyati iqtisodiyot va moliya bo'limi ma'lumotlariga tayanib ishlab chiqilgan.

	yangi qurilgan	250	1644		
	rekonstruktsiya qilingan	1710	17016,1	3	3464,6
	ta'mirlangan*				
6.	Suzish havzalari				
	yangi qurilgan				
	rekonstruktsiya qilingan				
	ta'mirlangan*				
7.	Musika va san'at maktablari	3	6767,0	3	7238,5
	yangi qurilgan	2	5038	2	5412,4
	rekonstruktsiya qilingan	1	1728,6	1	1826,1
	ta'mirlangan*				